Таким образом, Фирдоуси считает защиту Родины долгом всех людей, а сплоченность и единство народов - одним из условий обеспечения победы над врагами; умереть с высоким именем он считает предпочтительнее, чем влачить жизнь в страхе. «Шахнаме» Фирдоуси играет важную роль в развитии и процветании философии, литературы, искусства и образования. В каждой культурной семье эту книгу любят, читают и перечитывают, используют её идеи в воспитании подростков и молодежи. Потому что «Шахнаме» - это прежде всего воспитательное произведение. По убеждению Фирдоуси, в воспитании мудрой личности и самой мудрости важную роль играют усердие и старание, доблесть, дисциплина, совесть, честь, достоинство, преданность, любовь, патриотизм, трудолюбие, терпение и другие нравственные качества.

Мыслитель наставляет юношей, чтобы они избрали путь добра, остерегались зла и помнили наставления отца и матери. Он признает высокую роль знаний в жизни человека и рекомендует дружить с мудрыми людьми. Подчеркивая важность изучения наук и знаний,

Фирдоуси учит, что из любого знания нужно черпать и пользоваться им. Поэтому он призывает молодежь не проявлять слабость на пути изучения наук и прилагать усилия.

Мы должны широко использовать бессмертную «Шахнаме» Фирдоуси и её богатую нравственную и духовную сокровищницу в процессе обучения и воспитания молодежи, стараться повышать уровень знаний, мастерства и эстетического вкуса учащихся и студентов, учить их самопознанию и самосознанию, патриотизму и национальной гордости, трудолюбию, справедливости, чистоте и честности.

Как отметил выдающийся исследователь наследия наших предков Е. Э. Бертельс, Фирдоуси посвятил всё свое существо и сердце «Шахнаме», писал её кровью сердца и этой ценой заслужил любовь и уважение народа к себе. Подвиги героев этого шедевра показывают, что они проявили беспримерные деяния ради защиты Родины. [1, с. 198] Поэтому чтение, изучение, исследование и применение патриотических, благородных и нравственно-назидательных идей Хакима Фирдоуси

имеют огромное воспитательное значение и в наше время.

Литература

1. Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы / Е. Э. Бертельс. - Москва: Т. 1, 1960. - С. 198.
2. Бободжон Гафуров. Таджики: древнейшая, древняя и средневековая история / Гафуров Бободжон. - Душанбе: Ирфон, 1998. - 416 с.
3. Зохир Ахрори, Камол Айни. Назидательная книга (Андарзнома) Фирдоуси / Ахрори Зохир, Айни Камол. - Душанбе: Ирфон, 1992. - 272 с.
4. К. Олимов. Фирдоуси и таджикское Возрождение / Олимов К. - Душанбе: // Известия АН Республики Таджикистан. 1994. - № 2. - С. 32-37.
5. М. Муллоахмад. Добро и благодеяние с точки зрения Фирдоуси / Муллоахмадов М. // «Пайванд». - Душанбе. - 1991. - С. 6-7.
6. М. Муллоахмадов. Разум и мудрость в «Шахнаме» Фирдоуси / Муллоахмадов М. - Душанбе: // Известия АН Республики Таджикистан. 1994. - № 2. - С. 42-46.
7. Мирзо Муллоахмадов. Человек, литература, культура / Муллоахмадов Мирзо. - Душанбе: Адиб, 1998. - 336 с.
8. С. Улугзаде. Сказания «Шахнаме» / Улугзаде С. - Душанбе: Маориф, 1976. - 190 с.
9. Сафарова С. Д. Патриотические и нравственно-назидательные идеи в «Шахнаме» Фирдоуси / С. Д. Сафарова. - Душанбе: Труды Академии МВД Республики Таджикистан. 2015, № 2 (26). - С. 120-125.
10. Фирдоуси Абулькасим. Шахнаме / Абулькасим Фирдоуси. - Душанбе: Адиб, 2008. Т. 1. - 592 с.
11. Фирдоуси Абулькасим. Шахнаме / Абулькасим Фирдоуси. - Душанбе: Адиб, 2008. Т. 3. - 339 с.
12. Фирдоуси Абулькасим. Шахнаме / Абулькасим Фирдоуси. - Душанбе, 1965. Т. 4. - 339 с.
13. Фирдоуси Абулькасим. Шахнаме / Абулькасим Фирдоуси. — Душанбе: Адиб, 1989. Т. 5. - 460 с.
14. Шоди Асрор. Море наставлений и мудрости — лучшие бейты «Шахнаме» / Асрор Ш. - Душанбе: 1990. — С. 15-18.
15. К. Восеъ, Р. Хокироев, М. Турсунова. Отражение сущности благородства в «Шахнаме» Фирдоуси / Восеъ К., Хокироев Р., Турсунова М. - Душанбе: Известия Академии наук Республики Таджикистан. 1994. - С. 69-77.
16. Кадыров Кадыр, Раджабов Махмадулло. Воспитание личности и формирование нравственных качеств в «Шахнаме» Фирдоуси / Кадыр Кадыров, Махмадулло Раджабов. - Душанбе: Маориф, 2001. - 90 с.

Masharipova Gularam Kamilovna*Alfraganus university professori
falsafa fanlari doktori***ORSID: 0009-0007-0788-2359***masharipova.gularam2006@gmail.com*

YOSHLAR TAFAKKUR TARZI VA BUNYODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar tafakkur tarzini shakllantirish hamda ularning bunyodkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Xususan, oila muhiti, ta'lim tizimi, ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va shaxsiy motivatsiyaning o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, yoshlarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, tafakkur tarzi, bunyodkorlik faoliyati, kreativ fikrlash, ma'naviy tarbiya, innovatsiya, ijtimoiy muhit, motivatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются факторы, влияющие на формирование образа мышления молодежи и развитие их созидательной деятельности. Особое внимание уделяется роли семьи, системы образования, социальных отношений, духовно-нравственного воспитания, информационно-коммуникационных технологий и личной мотивации. Также рассматриваются вопросы развития креативного и критического мышления, формирования активной гражданской позиции и поддержки инновационных инициатив молодежи.

Ключевые слова: молодежь, образ мышления, созидательная деятельность, креативное мышление, духовное воспитание, инновации, социальная среда, мотивация.

Abstract. This article analyzes the factors influencing the formation of youth thinking patterns and the development of their constructive activities. Particular attention is paid to the role of family environment, education system, social relations, spiritual and moral upbringing, information and communication technologies, and personal motivation. The study also highlights the importance of developing creative and critical thinking skills, fostering active citizenship, and supporting innovative initiatives among young people.

Keywords: youth, mindset, constructive activity, creative thinking, moral education, innovation, social environment, motivation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Globallashuv sharoitida

yoshlarning tafakkur tarzi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning intellektual salohiyati, ijodiy fikrlashi va bunyodkorlik qobiliyatiga bog'liq. Shu bois yoshlar tafakkurini shakllantirish va ularni ijtimoiy faol, tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).

Tafakkur – insonning borliqni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirish jarayonidir [2, 45–63-b.]. Yoshlar tafakkur tarzi esa ularning ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya ta'sirida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlar va qaror qabul qilish usullarini ifodalaydi. Zamonaviy sharoitda yoshlar tafakkuriga quyidagi xususiyatlar xos: axborotni tez qabul qilish, innovatsion yondashuvga moyillik, mustaqil fikrlashga intilish, ijtimoiy faollik. Oila shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi birinchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onaning ma'naviy saviyasi, tarbiya uslubi va ijtimoiy faolligi yoshlarda dunyoqarash va qadriyatlar tizimini shakllantiradi.

Ta'lim jarayoni yoshlarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [3, 112–135-bb.]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yoshlar jamoada shakllanadi. Do'stlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari

ularning fikrlash uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va axloqiy me'yorlarini belgilaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya yoshlarda vatanparvarlik, mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar yoshlar tafakkurining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Internet ta'lim, onlayn platformalar va innovatsion muhit yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bunyodkorlik faoliyati – jamiyat manfaatiga qaratilgan ijodiy va amaliy faoliyatdir. Uni shakllantirish uchun: kreativ fikrlashni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, startap va tadbirkorlik muhitini yaratish, yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb etish zarur. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, shaxsning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyoji uni ijodiy va bunyodkor faoliyatga undaydi [4, 80–106-bb.]. Jahon XXI asrda kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yganligi va sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar turli kasbiy va ijtimoiy bilimlar, qadriyatlar, g'oyalarining shakllanishi jarayonini jadallashtirganligi munosabati bilan shaxsning ulardan xabardorligi darajasini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Har bir shaxsni mazkur bilim, qadriyatlar va g'oyalarni o'zlashtirishdan "bezdiradigan", chalg'itadigan omillar uning ma'naviy qiyofasini salbiy omillar ta'siridan himoya qilish yo'llarini topish masalasi alohida ahamiyatga ega. Shaxs madaniy saviyasi shakllanish

jarayonining objektiv shart-sharoitlari va sub'ektiv omillari, ijtimoiy-falsafiy jihatlar hamda bu boradagi madaniy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishning xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [5, 214–228-bb.].

Bunyodkorlik faoliyati turmushni yanada obod qilish, haqiqatni chuqur anglab olish, aholi va o'zini o'zi boshqarish tizimi, ijtimoiy himoya qilish va takomillashtirish, ijtimoiy iqtisodiyotni yanada kuchaytirish, hayotimizni yanada sog'lom va obod qilish, har bir kishining jamiyatdagi o'rni va nufuzi, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo'nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash kabi masalalarni o'z ichiga oladi [6, 57–74-bb.].

Bugungi kunda mustaqil respublikamizning qay darajada jadal rivojlanishi har bir kasb egasining o'z ishiga mas'uliyat bilan, bunyodkorlik nuqtai nazaridan yondashuviga bog'liq. Renessans davri ijtimoiy kapitali nuqtai nazaridan iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy muhitdagi yangilanishlar ta'sirida bo'lgan. Jamiyatdagi shaxslararo hamkorlik, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tabiatiga shu davrdagi humanizm g'oyalari rivoji ham iz qoldirdi. Humanizm – “insonda insaniylik alomatlarining mujassamlanishi jarayonini ifodalaydigan tushuncha”dir [7, 12-b.].

Shu ma'noda yuqori kasbiy malakali, tashabbuskor va bunyodkor shaxsni tarbiyalash, takomillashtirish respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri

hisoblanadi. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish o'quvchi faoliyatida shaxsning barcha ruhiy holatlari va jarayonlari, qo'yilgan masalani ijobiy hal qilishga qaratilgan. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirishda o'quvchi tafakkuri, faolligi kabi muhim omillar yuzaga chiqadi. Bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish jarayonida o'qituvchilar hamkorligi va rahbarligida o'quv-tarbiyaviy muammolarni hal qilish, pedagogik natijaga erishish kabilar amalga oshadi. O'quvchilarning ongi bunyodkor faoliyatini tarbiyalash, bunyodkorlik faoliyati tizimini shakllantirish ta'lim-tarbiya sohasida eng dolzarb muammoga aylanmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi deganda “jahon iqtisodiyotining o'zaro bog'liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo'jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorining asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishi” nazarda tutiladi [8, 329-b.]. Mazkur tendensiya, bir tomondan, milliy iqtisodiyotlarni unifikatsiya qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni jamiyatdagi turli jarayonlarga salmoqli ta'sir o'tkazishga qodir kuchga, jumladan, ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi, uning xarakterini o'zgartiruvchi markaziy omilga aylantirmoqda. Bu esa bugungi ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni bunyodkorlik ruhida tarbiyalash va rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Bu, o'z navbatida, umumiy o'rta ta'limda dars berayotgan o'qituvchilarning har tomonlama yetuk, malakali bo'lishini talab qiladi. Bunda o'qituvchi o'z ilmini

o'quvchilarga o'rgata olishi ular bunyodkorlik faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shundagina o'quvchilarda bunyodkorlik faoliyatini rivojlantirish, o'quv jarayonida olgan bilimlari har tomonlama chuqur va mustahkam bo'lishi yuqori bosqichga ko'tariladi.

Kelajak jamiyat taraqqiyotiga mos bo'lgan milliy bunyodkorlik faoliyatini shakllantirishning turli xil ilg'or shakllari, vositalari, usullarini ishlab chiqish, zamon va makon bilan hamnafaslikda o'rganish, yaratish va hayotga tatbiq etish talab qilinadi. Shu jihatdan ham o'qituvchi maktab o'quvchilarida bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish uchun ularning ota-onalari yoki homiylik qilgan shaxslar bilan yaqin va iliq munosabatlarni o'rnatishi zarur [9, 169-174-bb.].

O'quv ishlari davomida o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni tizimli ravishda bajarish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga yordam berish, o'quvchilarda bunyodkorlik faoliyatida mahalla, maktab va oila hamkorligiga erishish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi [10, 43-50-bb.].

Xulosa. Yoshlar tafakkur tarzi va bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Oila, ta'lim, ijtimoiy muhit va davlat siyosati o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritgandagina yoshlar intellektual va ijodiy salohiyati to'liq namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda kreativ va tanqidiy fikrlay oladigan, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlarni tarbiyalash

jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar tafakkur tarzi va bunyodkorlik faoliyatini shakllantirish ko'p omilli, murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning biologik rivojlanishi bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya tizimi, madaniy qadriyatlar va zamonaviy axborot makoni ta'sirida shakllanadi.

Avvalo, oila yosh shaxs tafakkurining ilk poydevorini yaratadi. Oiladagi sog'lom ma'naviy muhit, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlar yoshlarida mustaqil fikrlash, mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimi yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv usullar va kompetensiyaviy yondashuv yoshlarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki innovatsion g'oyalarni yaratish va amalga oshirish ko'nikmalarini ham rivojlantirishi lozim.

Uchinchidan, globalashuv va raqamlashtirish sharoitida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot manbai sifatida keng imkoniyatlar yaratmoqda, biroq ular

ma'naviy-axloqiy tahdidlar va salbiy ta'sirlar xavfini ham yuzaga keltiradi, xususan ijtimoiy tarmoqlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatga ta'siri haqidagi tadqiqotlar ko'rsatganidek. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirish va mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

To'rtinchidan, yoshlar bunyodkorlik faoliyatini rivojlantirish ularning ichki motivatsiyasi, o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyoji bilan uzviy bog'liq. Davlat va jamiyat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar — startap loyihalar, grantlar, innovatsion markazlar, yoshlar tashkilotlari — ularning ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, yoshlar tafakkur tarzi va bunyodkorlik faoliyatini shakllantirishda kompleks va tizimli yondashuv zarur. Oila, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat siyosati o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritgandagina ijtimoiy faol, tashabbuskor, kreativ va vatanparvar yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, kelajakda ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlar o'tkazish, yoshlar ongi va ijodiy faolligining rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda zamonaviy innovatsion metodikalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa jamiyat barqaror taraqqiyoti va inson kapitalini yuksaltirishning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlar haqida davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. — Tashkent: O'zbekiston, 2016. — 1–12-betlar..
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. — Москва: Педагогика, 1991. — 45–63-бетлар.
3. Дьюи Дж. Демократия и образование / пер. с англ. — Москва: Педагогика-Пресс, 2000. — 112–135-бетлар.
4. Maslow A. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1954. — pp. 80–106.
5. To'g'oymurodov J. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 214–228-betlar.
6. Qur'onov M. Yoshlar ma'naviyati va tarbiya masalalari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2019. — 57–74-betlar.
7. Choriev A., Choriev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. — Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. — 12-bet.
8. Eshtaev A.A., Abdug'aniev A.A. Jahon iqtisodiyotining globalashuvi: muammolar va yangi imkoniyatlar. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020, №3. — 329-bet.
9. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.

10. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
11. Хужаев, М. И. (2018). АҲМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
12. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.
13. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174
14. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamun. *Intent Research Scientific Journal-(IRSJ)* ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: intentresearch.org/index.php/irsj/index - pp. 43-50.

Sabirov Oybek Shavkatbekovich
Moliya kafedrası dotsenti, i.f.n.
E-mail: salov19751007@gmail.com

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINI QO'LLASH

Annotatsiya

Tadqiqotda O'zbekiston kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari o'rganildi. Kimyo sanoati klasterlarining shakllanish bosqichlari, ularning investitsion jarayonlarga ta'siri hamda loyihalarni boshqarishning zamonaviy modellari tahlil qilindi. Navoiy, Farg'ona va Qoraqalpog'iston kimyo texnoparklari faoliyatining dastlabki natijalari baholandi. Xalqaro tajriba - Niderlandiya Chemelot, Buyuk Britaniya NEPIC, Xitoy TEDA klasterlari - kontekstida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Investitsion qaytim ko'rsatkichi, loyihalar bajariluv darajasi va xarajatlar optimallasuvi bo'yicha klaster va an'anaviy yondashuvlar solishtirma tahlili o'tkazildi. Natijada kimyo sanoatida klaster yondashuvini qo'llash investitsion samaradorlikni 40-65 foizga oshirish imkoniyatini berishi isbotlandi.

Kalit so'zlar: kimyo sanoati, klaster yondashuvi, investitsion loyiha, samaradorlik, texnopark, loyihalarni boshqarish.

Аннотация

В исследовании изучены кластерные механизмы повышения эффективности управления инвестиционными проектами на предприятиях химической промышленности Узбекистана. Проанализированы этапы формирования химических кластеров, их влияние на инвестиционные процессы, а также современные модели управления проектами. Оценены первоначальные результаты деятельности химических технопарков Навои, Ферганы и Каракалпакстана. Проведён сравнительный анализ в контексте международного опыта - кластеров Chemelot (Нидерланды), NEPIC (Великобритания) и TEDA (Китай). Выполнен сопоставительный анализ кластерного и традиционного подходов по показателям инвестиционной отдачи, степени реализации проектов и оптимизации затрат. Доказано, что применение кластерного подхода способно повысить инвестиционную эффективность в химической промышленности на 40-65 процентов.

Ключевые слова: химическая промышленность, кластерный подход, инвестиционный проект, эффективность, технопарк, управление проектами.

Abstract

The study examined cluster mechanisms for improving the efficiency of investment project management in Uzbekistan's chemical industry enterprises. The stages of chemical industry cluster formation, their impact on investment processes, and modern project management models were analyzed. Preliminary results of the Navoi, Fergana, and Karakalpakstan chemical technoparks were evaluated. A comparative analysis was conducted within the context of international experience - the Chemelot cluster (Netherlands), NEPIC (United Kingdom), and TEDA (China). A comparative assessment of cluster versus traditional approaches was performed based on return on investment indicators, project completion rates, and cost optimization levels. The findings demonstrated that the application of the cluster approach can increase investment efficiency in the chemical industry by 40-65 percent.

Keywords: chemical industry, cluster approach, investment project, efficiency, technopark, project management.

KIRISH

Kimyo sanoati zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy ustunlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi, qurilish, to'qimachilik, farmatsevtika va energetika kabi ko'plab tarmoqlarni zarur xomashyo va materiallar bilan ta'minlaydi. O'zbekiston hukumatining 2019-2030 yillarga mo'ljallangan kimyo

sanoatini rivojlantirish dasturiga ko'ra, ushbu soha 12,1 mlrd AQSh dollari hajmida investitsiya kiritilishi lozim bo'lgan 31 ta yirik loyihani qamrab oladi [1]. Bu strategik dasturning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun investitsion loyihalarni boshqarishning yangi usullari, xususan, klaster yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Klaster nazariyasining asoschilaridan biri Michael Porter klasteri ma'lum bir hududda joylashgan, o'zaro bog'liq tarmoqlar, yetkazib beruvchilar, ilmiy muassasalar va davlat institutlarining kritik massasi sifatida ta'riflagan [2]. Kimyo sanoatida klaster yondashuvining qo'llanilishi investitsion loyihalarning samaradorligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va innovatsion jarayonlarni tezlashtirish imkonini beradi. Jahon Iqtisodiy Forumining ma'lumotlariga ko'ra, sanoat klasterlari global CO₂ emissiyalarining 30 foizini ishlab chiqaradigan korxonalarni birlashtirgan holda, resurs samaradorligini sezilarli darajada oshirish qobiliyatiga ega [3].

O'zbekistonda klaster yondashuvining dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori¹ bilan belgilab berilgan bo'lib, ushbu hujjat Navoiy, Farg'ona va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini

strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6231852>

Qoraqalpog'istonda uchta yirik kimyo klasterining tashkil etilishini nazarda tutadi [4]. Ammo klaster yondashuvining investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligiga ta'sir mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirish, klaster tuzilmalarining investitsion jarayonlarga ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan asoslash maqsadida olib borildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini klaster yondashuvi orqali oshirishning nazariy asoslarini shakllantirish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- klaster nazariyasining evolyutsiyasini o'rganish;
- O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarining joriy holatini tahlil qilish;
- xalqaro tajribani qiyoslash; investitsion samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash;
- kimyo sanoati uchun klaster asosidagi investitsion boshqaruv modelini taklif etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bir necha jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, O'zbekiston kimyo sanoati klasterlari kontekstida investitsion loyihalarni boshqarishning integratsiyalashgan modeli birinchi marta taklif etiladi. Ikkinchidan, klaster va an'anaviy yondashuvlarning investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlili beshta parametrlar

asosida o'tkaziladi. Uchinchidan, Buxoro gaz-kimyo majmuasi va Navoiy kimyo texnoparki misolida klaster yondashuvining amaliy tatbiqi natijalarining dastlabki bahosi beriladi.

Amaliy jihatdan ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarining boshqaruv organlari, investitsion loyihalar rahbarlari, sanoat siyosatini ishlab chiquvchi davlat tuzilmalari va xalqaro investorlar uchun foydali bo'lishi kutiladi. Tadqiqotda taklif etilgan model va tavsiyalar klasterlarda investitsion jarayonlarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsion salohiyatni oshirish uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster nazariyasining ildizlari Alfred Marshall ning tashqi iqtisodiyotlar konsepsiyasiga borib taqaladi, biroq zamonaviy klaster paradigmasi asosan Porter tomonidan shakllantirilgan [2], [5]. Porterning "raqobatbardosh ustunliklar olmosi" modeli to'rt asosiy omil - ishlab chiqarish sharoitlari, talab sharoitlari, yordamchi va bog'liq tarmoqlar, hamda firma strategiyasi va raqobat tuzilmasi - o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushuntiradi. Ushbu model klasterlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini tizimli tarzda asoslaydi.

Klaster yondashuvining investitsion samaradorlikka ta'siri bo'yicha bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Delgado, Porter va Stern klasterlarning mintaqaviy iqtisodiy o'sish va tadbirkorlikni

rag'batlantirishdagi rolini empirik jihatdan isbotlagan [6]. Ularning topilmalariga ko'ra, rivojlangan klaster muhiti yangi investitsiyalarni jalb qilish ehtimolini 2,5 barobarga oshiradi. Ketels va Memedovic klaster siyosatining samaradorligini OECD mamlakatlarida tadqiq qilib, investitsion muhitni yaxshilashda klaster tashabbuslarining hal qiluvchi ahamiyatini aniqlagan [7].

Kimyo sanoatida klaster yondashuvining qo'llanilishi bo'yicha maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu soha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Al-Mohannadi va boshqalar kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyalashgan klasterlarida investitsion portfelni optimallashtirish masalasini Zamonaviy portfel nazariyasi (MPT) asosida o'rgangan [8]. Ularning tadqiqoti shuni isbotladiki, optimal risk-daromad portfelli faqat integratsiyalashgan klasterlardan emas, balki mustaqil korxonalar bilan qo'shilgan aralash tuzilmalardan tashkil topadi. Shehab va hammualliflari ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, massa va energiya integratsiyasi orqali klaster ichidagi investitsion qarorlarning o'zgarishini tahlil qilgan [9].

Markaziy Osiyo kontekstida klaster rivojlanishini tadqiq qilgan ishlar orasida Yevropa tadqiqot tarmog'i O'zbekistonning sanoat siyosatini tahlil qilib, mamlakatning 2030-yilga qadar sanoat-texnologik mahsulotlar ulushini 25 dan 32 foizga oshirish rejasini

baholagan [10]. Kudaynazarova O'zbekiston kimyo sanoatining asosiy muammolari - eskirgan ishlab chiqarish fondlari, yuqori energiya sarfi va cheklangan innovatsion salohiyatni aniqlagan hamda sanoat klasterlari rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqqan [11].

Loyihalarni boshqarish nazariyasi kontekstida IPMA kimyo sanoatida loyiha boshqaruvinig o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib, Front End Engineering Design (FEED) bosqichining investitsion samaradorlikka ta'sirini ta'kidlagan [12]. Wagner loyiha boshqaruvida raqamlashtirish - raqamli egizak (digital twin), Building Information Modelling (BIM) va ma'lumotlar tahlilining xarajatlarni 35 foizga, sikl vaqtini 50 foizga qisqartirish imkoniyatini ko'rsatgan [12]. Söderholm va boshqalar sanoat klasterlaridagi bosqichma-bosqich takomillashtirish strategiyasining uzoq muddatli investitsion samaradorlikka salbiy ta'sirini aniqlagan [13].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, klaster yondashuvining investitsion samaradorlikka ta'siri keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston kimyo sanoatiga tatbiq etilgan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Bundan tashqari, klaster ichidagi investitsion loyihalarni boshqarishning integratsiyalashgan modeli hali to'liq ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu nazariy va amaliy bo'shliqni to'ldirish yo'nalishida olib borildi.

Adabiyotlar sharhini yakunlash o'rnida ta'kidlash lozimki, klaster yondashuvining nazariy asoslari yaxshi ishlab chiqilgan (Porter; Delgado va boshq.; Ketels va Memedovic), kimyo sanoatida uning qo'llanilishi bo'yicha ham muhim empirik natijalar mavjud (Al-Mohannadi va boshq.; Shehab va boshq.; Wesseling va boshq.). Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo kontekstida klaster yondashuvining investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligiga ta'siri hali chuqur o'rganilmagan. Bergman va Feser ta'kidlaganidek, rivojlanmagan hududlarda resurslarni asosiy tarmoqlarga jamlash qiyin, chunki mintaqalarda yetarli infratuzilma mavjud emas [25]. Bu ogohlantirish O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega va klaster siyosatini ishlab chiqishda infratuzilma investitsiyalariga ustuvorlik berish zarurligini anglatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot dizayni aralash usullar (mixed methods) yondashuviga asoslangan bo'lib, miqdoriy va sifatiy tahlil usullarini integratsiyalashgan holda qo'llaydi. Tadqiqotning obyekti - O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari va ularda shakllantiriladigan klaster tuzilmalaridir. Predmet sifatida esa klaster yondashuvining investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligiga ta'sir mexanizmlari tanlangan.

Ma'lumotlar bazasi quyidagi manbalardan shakllantirildi:

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (stat.uz), AQSh Savdo vazirligi (Trade.gov) ning O'zbekiston kimyo sanoati bo'yicha hisobotlari [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-388-son Qarori², UNIDO va Jahon Iqtisodiy Forumining sanoat klasterlariga oid hisobotlari [3], [14], xalqaro ilmiy jurnallardagi tadqiqotlar [8], [9], [13], hamda O'zbekiston kimyo sanoati korxonalarining ochiq hisobotlari [15].

Tadqiqotda quyidagi tahlil usullari qo'llandi. Birinchidan, tizimli tahlil usuli - klaster tuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning investitsion jarayonlarga ta'sir kanallarini aniqlash maqsadida. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli - O'zbekiston kimyo klasterlarining xalqaro analoglardan (Niderlandiya Chemelot, Buyuk Britaniya NEPIC, Xitoy TEDA) farqi va umumiy jihatlarini aniqlash uchun [3], [16]. Uchinchidan, iqtisodiy-statistik tahlil - investitsion qaytim (ROI), loyihalar bajariluv darajasi, xarajatlar optimallasuvi kabi ko'rsatkichlarni hisoblash uchun.

Klaster yondashuvining investitsion samaradorlikka ta'sirini baholash uchun Porterning "olmosli" modeli hamda UNIDO ning sanoat klasterlarini baholash metodologiyasi asos sifatida qabul qilindi [2, 14]. Investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlandi:

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini

strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6231852>

$$ROI = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami investitsiya}} \times 100$$

$$\text{Loyihalar bajariluvu darajasi} = \frac{\text{Bajarilgan loyihalar soni}}{\text{Rejalashtirilgan loyihalar soni}} \times 100$$

$$\text{Xarajatlar optimallasuvi} = \frac{\text{An'anaviy xarajat} - \text{Klaster xarajati}}{\text{An'anaviy xarajat}} \times 100$$

Tadqiqotning vaqt chegarasi 2019-2025 yillarni qamrab oladi - O'zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish dasturining boshlanish sanasidan hozirgi kungacha bo'lgan davr. Geografik ko'lam O'zbekiston Respublikasining Navoiy, Farg'ona, Buxoro va Qoraqalpog'iston hududlarida joylashgan kimyo sanoati korxonalarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida bir qator cheklovlar mavjud bo'lib, ularni e'tiborga olish lozim. Birinchidan, O'zbekiston kimyo klasterlari hali shakllanish bosqichida bo'lganligi sababli, ularning uzoq muddatli samaradorligini baholash uchun yetarli vaqt o'tmagan. Ikkinchidan, ba'zi ma'lumotlar (xususan, individual korxonalar darajasidagi moliyaviy ko'rsatkichlar) tijorat siri sifatida ochiq emas, shu sababli tahlil asosan agregatlangan ma'lumotlarga tayanadi. Uchinchidan, xalqaro klasterlar bilan qiyoslashda iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni hisobga olish zarur - rivojlangan mamlakatlarning tajribasi to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston sharoitiga ko'chirilishi mumkin emas. Shu bilan birga, ushbu cheklovlar tadqiqotning asosiy xulosalariga

sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki tahlil turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni qiyoslash va triangulatsiya qilish asosida olib borilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston kimyo sanoatining joriy holati va klaster tuzilmalari

O'zbekiston kimyo sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i bo'lib, "Uzkiyosanoat" AJ tizimida 44 ta korxona va tashkilot faoliyat ko'rsatadi [15]. Trade.gov (2023) ma'lumotlariga ko'ra, kimyo korxonalari 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida 14,4 trln so'm qiymatida mahsulot ishlab chiqargan, o'sish sur'ati 108,1 foizni tashkil etgan [1]. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish so'f holatda 1 424,4 ming tonnaga yetgan bo'lib, shundan azotli o'g'itlar 1 097,5 ming tonna, fosforli o'g'itlar 149,7 ming tonna, kaliyly o'g'itlar 177,2 ming tonnani tashkil etgan [1].

Eksport ko'rsatkichlari ham sezilarli o'sishni namoyish etdi: 2022-yilda kimyo mahsulotlari eksporti 461,2 mln AQSh dollariga yetib, rejaning 130 foizi bajarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobarga oshdi [1]. Asosiy eksport yo'nalishlari - Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya,

Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Afg'oniston va Tailandni o'z ichiga oladi. Biroq 2025-yil yakuni bo'yicha kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 7,5 foizlik pasayish qayd etildi [17], bu esa tarmoqda tizimli islohotlar zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

PQ-388-son Qaror (2022) doirasida uchta asosiy kimyo klasteri tashkil etilmoqda [4]. "Navoiy kimyo texnoparki" - mintaqadagi eng yirik klaster bo'lib, AJ "Navoiyazot" ni o'z ichiga oladi. "Farg'ona kimyo texnoparki" - AJ "Farg'onaazot" hamda

qo'shimcha qayta ishlash korxonalari bazasida shakllanmoqda. "Qoraqalpog'iston klasteri" - AJ "Qo'ng'iroq soda zavodi" va yangi loyihalar asosida rivojlanmoqda. Ushbu klasterlar jami 10,65 mlrd AQSh dollari investitsiyani o'zlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, mablag'larning 725,9 mln dollari klasterlarning o'z mablag'lari, 2,49 mlrd dollari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va 7,43 mlrd dollari xorijiy kreditlar hisobidan ta'minlanishi rejalashtirilgan [1].

1-jadval.


O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022-2025 yil)³

Klaster nomi	Rejalashtirilgan invest. (mln AQSH dollar)	O'zlashtirilgan invest. (mln AQSH dollar)	Loyihalar soni	Yangi ish o'rinlari
Navoiy kimyo texnoparki	4 200	2 890	12	3 200
Farg'ona kimyo texnoparki	3 100	1 950	16	800
Qoraqalpog'iston klasteri	2 800	1 680	8	1 500
Buxoro gaz-kimyo majmuasi	3 300	2 100	5	2 800
JAMI	13 400	8 620	41	8 300

1-rasm. O'zbekiston kimyo sanoati klasterlariga investitsiyalar (2022-2025 yillar, mln AQSh dollari)⁴

³ Manba: Trade.gov (2023) [1], PQ-388-son Qaror (2022) [4], Diplomatmagazine.eu (2023) [15] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁴ Manba: Trade.gov (2023) [1], PQ-388-son Qaror (2022) [4], Diplomatmagazine.eu (2023) [15] ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha klasterlar bo'yicha investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi rejalashtirilgan hajmning 60-69 foizini tashkil etmoqda. Eng yuqori o'zlashtirish darajasi Navoiy kimyo texnoparkida (68,8%) qayd etilgan, bu korxonaning yetarli infratuzilma bazasi va tajribali boshqaruv tizimiga egaligi bilan izohlanadi. Farg'ona klasterida o'zlashtirish darajasi nisbatan past (62,9%), chunki texnoparkda 16 ta yangi loyiha bir vaqtda amalga oshirilmoqda va ularning aksariyati hali dastlabki bosqichda [15].

Xalqaro tajriba: kimyo sanoati klasterlari va investitsion boshqaruv

Xalqaro tajriba kimyo sanoati klasterlarining investitsion loyihalarni boshqarishdagi rolini baholash uchun muhim taqqoslash bazasini taqdim etadi. Uchta yetakchi klaster - Chemelot (Niderlandiya), NEPIC (Buyuk Britaniya) va TEDA (Xitoy) - ning tajribasi quyida tahlil qilinadi.

Chemelot klasteri (Niderlandiya). Niderlandiyaning janubi-sharqida joylashgan Chemelot Yevropaning eng yirik integratsiyalashgan kimyo klasterlaridan biri hisoblanadi. Klasterning o'ziga xos jihati shundaki, u barcha energiya va material resurslarini birgalikda optimallashtirish tizimiga ega [13]. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, klasterdagi korxonalar qisqa muddatli manfaatdorlik va bosqichma-bosqich takomillashtirish strategiyasiga moyil bo'lib, bu uzoq muddatli investitsion loyihalarning amalga oshirilishini sekinlashtiradi [13]. Klasterda aniqlangan uchta "tuzoq" - inkrementalizm, qisqa muddatli fokus va korxonalarning yakka holda harakat qilishi - O'zbekiston kimyo klasterlari uchun ham profilaktik ahamiyatga ega.

NEPIC (Buyuk Britaniya). Shimoliy-sharqiy Angliyaning jarayon sanoati klasteri 2004-yildan buyon faoliyat yuritib, yirik kapital loyihalarni qo'llab-quvvatlash, boshqaruv sotib

olish (MBO) va start-uplar uchun muhit yaratish bo'yicha keng ko'lamli tajribaga ega [16]. NEPICning muhim jihati - klaster ishtirokchilari uchun ta'minot zanjiri imkoniyatlari haqida razvedka xizmatlarini taqdim etishi: hudud tanlash, rejalashtirish, infratuzilma, xomashyo manbalari, muhandislik va logistika sohalarida [16]. Ushbu model O'zbekiston klasterlari uchun o'rganishga loyiq tajriba sifatida baholanishi mumkin.

TEDA (Xitoy). Tyansszin iqtisodiy-texnologik rivojlanish hududi geotermik energiya loyihasini amalga oshirgan bo'lib, natijada yillik CO₂ emissiyasi 5 000 tonnaga kamaygan [3]. TEDA ning quyosh paneli energiya ishlab chiqarish quvvati 556 MVt ga yetgan va kengayishda davom etmoqda [3]. Bu ko'rsatkichlar innovatsion va barqaror investitsion loyihalarni boshqarishda klaster yondashuvining amaliy samaradorligini yaqqol ko'rsatadi.

2-jadval.

Xalqaro kimyo sanoati klasterlarining qiyosiy tahlili⁵


Ko'rsatkich	Chemelot (Niderlandiya)	NEPIC (Buyuk Britaniya)	TEDA (Xitoy)	O'zbekiston klasterlari
Tashkil etilgan yili	1998	2004	1984	2022
Asosiy ixtisoslik	Petrokimyo, polimerlar	Kimyo, farmatsevtika	Energetika, kimyo	O'g'it, polimer, gaz-kimyo
Korxonalar soni	150	200	5 000	44
Integratsiya darajasi	Yuqori	O'rta-yuqori	Yuqori	Boshlang'ich
Invest. boshqaruv modeli	PMO, MPT	PMO, FEED	Markazlashtirilgan	An'anaviy

*Klaster yondashuvining
investitsion samaradorlikka ta'siri:
qiyosiy tahlil*

Klaster yondashuvining investitsion samaradorlikka ta'sirini miqdoriy baholash uchun beshta asosiy ko'rsatkich bo'yicha qiyosiy

tahlil o'tkazildi. Tahlilda xalqaro klasterlar tajribasi (UNIDO, 2021; WEF, 2024; Trade.gov, 2023) dan olingan ma'lumotlar an'anaviy korxona darajasidagi boshqaruv ko'rsatkichlari bilan solishtirildi [1], [3], [14].

⁵ Manba: WEF (2024) [3], NEPIC (2023) [16], Diplomatomagazine.eu (2023) [15], Trade.gov (2023) [1] ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. Klaster va an'anaviy yondashuvning investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlili⁶

2-rasmda taqdim etilgan natijalar klaster yondashuvining barcha beshta ko'rsatkich bo'yicha aniq ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Investitsion qaytim (ROI) klaster sharoitida 18,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, an'anaviy yondashuvda bu ko'rsatkich 11,2 foizga teng — farq 65 foizdan ortiq. Bu natija Porter (1998) ning klasterlar tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi degan gipotezasini tasdiqlaydi [2]. Loyihalar bajariluv darajasi klasterlarda 82 foizga, an'anaviy tizimda esa 64 foizga teng. 18 foizlik farq loyihalarni koordinatsiyalash, umumiy infratuzilmadan foydalanish va ilmiy-texnik resurslarni birgalikda qo'llash natijasida yuzaga keladi.

Xarajatlari optimallashtiruv ko'rsatkichi alohida diqqatga sazovor: klaster yondashuvi xarajatlarni 24

foizga kamaytirish imkonini beradi, an'anaviy yondashuvda bu ko'rsatkich 12 foizni tashkil etadi. Ushbu natija Shehab va boshqalarning massa va energiya integratsiyasi orqali klaster ichidagi korxonalar o'rtasida resurs almashinuvi tejamkorlikni sezilarli darajada oshiradi degan xulosasiga mos keladi [9]. Innovatsion mahsulot ulushi klasterlarda 35 foizga yetadi (an'anaviy tizimda 18 foiz), bu esa ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim markazlari va ishlab chiqarish korxonalarining yaqin joylashuvidan kelib chiqadigan bilim transferi samarasini aks ettiradi [2, 6].


Kimyo sanoati klasterining investitsion loyihalarni boshqarish modeli

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda, O'zbekiston kimyo sanoati klasterlari uchun

⁶ Manba: UNIDO (2021) [14], WEF (2024) [3], Trade.gov (2023) [1] ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

investitsion loyihalarni boshqarishning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi. Ushbu model Porterning klaster nazariyasi [2], UNIDO ning sanoat

klasterlarini rivojlantirish metodologiyasi [14] va IPMA ning loyiha boshqaruvi standartlari [12] asosida ishlab chiqilgan.



3-rasm. Kimyo sanoati klasterining investitsion loyihalarni boshqarish modeli⁷

3-rasmda taqdim etilgan model sakkiz ta o'zaro bog'liq komponentni o'z ichiga oladi. Markazda "Kimyo sanoati klasteri markazi" joylashgan bo'lib, u barcha komponentlar o'rtasida koordinatsiyani ta'minlaydi. Yuqori qatlamda ilmiy-tadqiqot muassasalari, investitsion loyihalar boshqaruvi (PMO - Project Management Office) va moliyaviy institutlar joylashgan. PMO tuzilmasi loyihalarning rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring bosqichlarini markazlashtirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi. Yonaki qatlamda xomashyo yetkazuvchilar va logistika-infratuzilma tuzilmalari

mavjud bo'lib, ular ta'minot zanjirining uzluksizligini kafolatlaydi. Pastki qatlamda kadrlar tayyorlash markazlari, innovatsion texnologiyalar transferi va davlat tartibga solish organlari joylashgan.

Ushbu modelning afzalligi shundaki, u an'anaviy chiziqli loyiha boshqaruv tizimidan farqli ravishda, barcha manfaatdor tomonlarni yagona klaster ekotizimiga birlashtiradi. NEPIC tajribasi ko'rsatganidek [16], klaster ishtirokchilariga ta'minot zanjiri imkoniyatlari haqida razvedka xizmatlarini taqdim etish investitsion qarorlar sifatini sezilarli darajada

⁷ Manba: Mualliflar ishlanmasi, Porter (1998) [2], UNIDO (2020) [14] metodologiyasi asosida.

yaxshilaydi. Shu bilan birga, Chemelot klasterida aniqlangan uchta "tuzoq" - inkrementalizm, qisqa muddatli fokus va yakka harakatdan [13] qochish uchun modelda maxsus mexanizmlar nazarda tutilgan: uzoq muddatli investitsion strategiyani ishlab chiqish, klaster avtonomiyasini oshirish va ta'minot zanjiri bo'ylab o'zgarishlarni rag'batlantirish.

Buxoro gaz-kimyo majmuasi:

klaster yondashuvining amaliy tatbiqi

Klaster yondashuvining amaliy samaradorligini baholashda Buxoro viloyatidagi Qarakul erkin iqtisodiy zonasida qurilayotgan gaz-kimyo majmuasi alohida ahamiyatga ega. "Sanoat Energetika Guruhi" (Saneg) tomonidan Xitoyning Sinopec kompaniyasi hamkorligida amalga oshirilayotgan ushbu loyiha 3,3 mlrd AQSh dollari hajmida investitsiyani o'z ichiga oladi [18, 19]. Majmua yiliga 1,3 mlrd kub metr tabiiy gazni qayta ishlash va 1,1 mln tonna polimer mahsulotlari - yuqori zichlikdagi polietilen (HDPE), past zichlikdagi polietilen (LDPE), etilen-vinil-atsetat (EVA), polietilentereftalat (PET) va polipropilen (PP) - ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi [19].

Loyihaning klaster xususiyati shundaki, Qarakul erkin iqtisodiy zonasi 2022-yil iyulda O'zbekiston hukumati tomonidan rasman tashkil etilgan bo'lib, u mintaqadagi birinchi maxsus iqtisodiy zona - Markaziy Osiyodagi eng yirik gaz-kimyo klasteri hisoblanadi [19]. Zona ishtirokchilariga soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim

etiladi, xorijiy valyutada biznes yuritish huquqi beriladi hamda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida uzluksiz elektr ta'minoti kafolatlanadi [19]. Oil & Gas Journal (2024) ma'lumotlariga ko'ra, loyihaning tayyor mahsulotlarining 70 foizdan ortig'i ichki bozorda sotiladi, qolgan 30 foizi MDH, Xitoy, Turkiya va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga eksport qilinadi [19].

Buxoro gaz-kimyo majmuasi atrofida to'qimachilik, gilam, oyoq kiyimlari, plastik quvur va fittinglar ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda, bu esa klassik klaster tuzilmasining shakllanish jarayonini ko'rsatadi [18]. Saneg vakillari O'zbekistonda adam boshiga polimer iste'moli hozirda 5,5 kg ni tashkil etishini, Turkiyada esa bu ko'rsatkich 23 kgga yetishini ta'kidlagan, bu ichki bozorning katta o'sish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi [18].

Navoiy kimyo texnoparki va xalqaro investitsion sheriklik

Navoiy kimyo texnoparki klaster rivojlanishining yana bir amaliy namunasi sifatida ajralib turadi. 2023-yilda Air Products kompaniyasi O'zbekiston hukumati va "O'zbekneftgaz" AJ bilan Qashqadaryo viloyatida tabiiy gazdan sintez-gazga qayta ishlash obyekti sotib olish, egalik qilish va boshqarish bo'yicha 1 mlrd AQSh dollari hajmida investitsion shartnoma imzolagan [1]. Xuddi shu yili KPMG bosh maslahatchi, KBR esa texnik maslahatchi sifatida AJ "Navoiyazot" - O'zbekiston kimyo

mahsulotlarining 30 foizdan ortig'ini ishlab chiqaradigan davlat korxonasining xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun tanlangan [1]. IFC loyihaning strategik maslahatchisi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

2025-yilning ikkinchi choragida yashil vodorod va sianid tuzlari ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu loyihalar 170 mln AQSh dollari hajmida xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda [1]. Toshkent Xalqaro investitsiya forumida (2025-yil iyun) "Uzkiyosanoat" raisi maslahatchisi Giorgio Veronesi klaster loyihalarining uchta asosiy yo'nalishini - strategik sanoat loyihalari, barqaror rivojlanish tashabbusi va eskirgan obyektlarni modernizatsiya qilish - aniqlab bergan [20]. Forum yakunida O'zbekiston kimyo sektorining Markaziy Osiyodagi yetakchi sanoat markaziga aylanish yo'l xaritasi tasdiqlangan [20].

Klaster ichidagi investitsion mexanizmlarning tuzilmaviy tahlili

Kimyo sanoati klasterlarida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy mexanizmlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Porter ta'kidlaganidek, klasterlar ishtirokchilariga koordinatsiya va o'zaro takomillashtirish imkoniyatlarini raqobatni cheklamasdan yoki uning intensivligini kamaytirmasdan ta'minlaydi [25]. Bu tamoyil kimyo sanoatida ayniqsa muhim, chunki ushbu tarmoqda kapital sig'imi yuqori,

texnologik jarayonlar murakkab va xavf darajasi baland.

Birinchi mexanizm - umumiy infratuzilmadan foydalanish orqali investitsion xarajatlarni kamaytirish. Indiana Business Research Center tadqiqotlari ko'rsatganidek, kimyo sanoati klasterlarida band bo'lganlarning ish o'rinlari multiplikatori 4,4 ga teng, ya'ni klasterda yaratilgan har 10 ta ish o'rnini boshqa tarmoqlarda 34 ta qo'shimcha ish o'rnini yaratadi [22]. Bu ko'rsatkich infratuzilma investitsiyalarining yuqori daromadlilikini anglatadi. O'zbekiston kontekstida Navoiy, Farg'ona va Buxoro klasterlarida umumiy energiya tizimi, logistik markazlar va laboratoriya jihozlaridan birgalikda foydalanish rejalashtirilgan bo'lib, bu individual korxonalar xarajatlarini o'rtacha 20-25 foizga kamaytirishi prognoz qilinmoqda [1], [4].

Ikkinchi mexanizm - bilim transferi va innovatsion diffuziya. Malmberg va Maskell ta'kidlaganidek, klasterlar ichidagi bilim tarqalishi uch jarayon orqali amalga oshadi: o'zaro ta'sir orqali o'rganish (vertikal o'lchov), kuzatish orqali o'rganish (gorizontal o'lchov) va aloqa orqali o'rganish [23]. O'zbekiston kimyo klasterlarida bu jarayon hali to'liq shakllanmagan, ammo Farg'ona kimyo texnoparkida 16 ta loyihaning bir vaqtda amalga oshirilishi [15] korxonalar o'rtasida tajriba almashish uchun tabiiy sharoit yaratmoqda. Xususan, 30 dan ortiq yangi import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish [15] -

polipropilen ko'pigi, termoplastik elastoplast, shisha tola polimer mahsulotlari, dizel yonilg'isi yonish katalizatorlari, bio o'g'itlar - har biri o'ziga xos texnologik yechimlarni talab etadi va klaster ichidagi bilim almashinuvini rag'batlantiradi.

Uchinchi mexanizm - klaster darajasida investitsion risklarni diversifikatsiya qilish. Al-Mohannadi va boshqalarning MPT asosidagi tahlili ko'rsatganidek, optimal investitsion

portfellar faqat integratsiyalashgan klasterlardan emas, balki mustaqil korxonalar bilan qo'shilgan aralash tuzilmalardan tashkil topadi [8]. Bu natija O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega: kimyo klasterlarida turli ko'lamdagi korxonalarni - yirik strategik loyihalar (Buxoro gaz-kimyo majmuasi kabi) va kichik innovatsion start-uplarni - birgalikda rivojlantirish investitsion barqarorlikni oshiradi.

3-jadval.

Klaster yondashuvining investitsion samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri, foizda⁸

Samaradorlik ko'rsatkichi	Klaster yondashuvi	An'anaviy yondashuv	Farq
Investitsion qaytim (ROI)	18,5	11,2	65,2
Loyihalar bajariluv darajasi	82,0	64,0	28,1
Xarajatlar optimallasuvi	24,0	12,0	100,0
Innovatsion mahsulot ulushi	35,0	18,0	94,4
Eksport salohiyati o'sishi	42,0	22,0	90,9
Loyiha amalga oshirish muddati qisqarishi	30,0	10,0	200,0

3-jadvalda taqdim etilgan ma'lumotlar klaster yondashuvining barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha an'anaviy tizimdan sezilarli ustunlikka ega ekanligini raqamli tarzda ko'rsatadi. Ayniqsa, xarajatlar optimallasuvi (100 foiz farq) va loyiha amalga oshirish muddati qisqarishi

(200 foiz farq) ko'rsatkichlari diqqatga sazovor. Xarajatlar optimallasuvining ikki barobarga oshishi Shehab va boshqalarning massa va energiya integratsiyasi orqali korxonalar o'rtasida resurslarni almashish tejankorlikni sezilarli darajada oshiradi degan xulosasiga to'liq mos keladi [9].

⁸ Manba: UNIDO (2021) [14], WEF (2024) [3], Trade.gov (2023) [1], IPMA (2018) [12] ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

Loyiha muddatlari qisqarishi esa FEED metodologiyasi va klaster darajasidagi markazlashtirilgan boshqaruvning samaradorligini aks ettiradi [12].

O'zbekiston kimyo klasterlarining rivojlanish istiqbollari va bosqichlari

O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarining rivojlanish istiqbollarini baholashda 2030-yilga qadar belgilangan strategik maqsadlarni hisobga olish lozim. O'zbekiston Respublikasining "Strategiya-2030" hujjatiga ko'ra, mamlakat sanoat-texnologik mahsulotlar ulushini 25 dan 32 foizga oshirish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini ikki barobarga ko'paytirish va 2,5 million yuqori daromadli ish o'rnini yaratishni maqsad qilgan [10]. Kimyo sanoati klasterlari ushbu maqsadlarga erishishda kalit rol o'ynaydi.

Klaster rivojlanishining uch bosqichli modelini taklif etish mumkin. Birinchi bosqich (2022-2026) - infratuzilma va institutsional asos yaratish. Bu bosqichda texnoparklarning fizik infratuzilmasi quriladi, asosiy "yakor" korxonalar ishga tushiriladi va klaster boshqaruv organlari shakllantiriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston klasterlari aynan shu bosqichda. Ikkinchi bosqich (2026-2028) - klaster ekotizimining yetilishi. Bu bosqichda korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya chuqurlashadi, ta'minot zanjirlari mustahkamlanadi, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayadi. Uchinchi bosqich (2028-2030) - xalqaro integratsiya va innovatsion yetakchilik.

Bu yakuniy bosqichda klasterlar xalqaro hamkorlik tarmoqlariga to'liq integratsiyalashadi, eksport hajmi sezilarli darajada oshadi va innovatsion mahsulotlar ulushi 35 foizdan oshadi.

Har bir bosqichda investitsion loyihalarni boshqarish usullari ham o'zgarishi kerak. Birinchi bosqichda an'anaviy loyiha boshqaruvi usullari klaster elementlari bilan to'ldiriladi. Ikkinchi bosqichda to'liq PMO tizimi joriy etiladi va klaster ichidagi koordinatsiya mexanizmlari kuchaytiriladi. Uchinchi bosqichda esa agil va gibril loyiha boshqaruvi usullariga o'tiladi, raqamli transformatsiya to'liq amalga oshiriladi [12]. Air Products kompaniyasining Qashqadaryo viloyatidagi 1 mlrd dollarlik loyihasi [1] va Toshkent xalqaro investitsiya forumida e'lon qilingan yangi tashabbuslar [20] shu yo'nalishdagi dastlabki qadamlar sifatida baholanishi mumkin.

Xalqaro tajribadan ko'rinib turibdiki, muvaffaqiyatli klasterlarning shakllanishi odatda 10-15 yil davom etadi [16], [23]. NEPIC klasteri 2004-yildan beri faoliyat yuritib, hozirga kelib 200 dan ortiq korxonani birlashtirgan va xalqaro miqyosda tan olingan. O'zbekiston kimyo klasterlari 2022-yilda rasman tashkil etilganini hisobga olsak, ularning to'liq yetilishi uchun 2032-2037 yillar prognoz qilinadi. Ammo klaster ichidagi investitsion loyihalarni samarali boshqarish mexanizmlarini dastlabki bosqichdayoq joriy etish bu muddatni 3-5 yilga qisqartirishi mumkin.

Ichki bozor salohiyati va klaster loyihalarining iqtisodiy asoslanishi

Klaster yondashuvining investitsion samaradorligini asoslashda ichki bozor salohiyatining bahosi muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda adam boshiga polimer iste'moli hozirda 5,5 kg ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich Turkiyada 23 kg, rivojlangan Yevropa mamlakatlarida esa 40-60 kg ga teng [18]. Bu farq O'zbekiston ichki bozorining kam deganda to'rt barobarga o'sish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Buxoro gaz-kimyoy majmuasining yillik 1,1 mln tonna polimer ishlab chiqarish quvvati [19] ushbu talab bo'shliqni qisman to'ldirish imkonini beradi.

Eksport jihatidan ko'rib chiqilganda, 2023-yilda O'zbekiston kimyoviy mahsulotlar eksporti umumiy eksportning 5,4 foizini tashkil etgan [24]. Klaster loyihalarining to'liq ishga tushishi bilan bu ko'rsatkich 2030-yilga qadar 8-10 foizga yetishi prognoz qilinadi. Buxoro majmuasining mahsulotlarining 44 foizi eksportga yo'naltirilishi [18], Navoiy texnoparkida ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlarning Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya va boshqa mamlakatlarga chiqarilishi [1] klaster asosidagi eksport strategiyasining amaliy namunalidir.

Import o'rnini bosish bo'yicha ham klaster yondashuvi sezilarli natijalar beradi. Saneg vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, polipropilen, polietilen va boshqa polimer mahsulotlari bo'yicha O'zbekiston yillik importi 500 mln AQSh dollaridan ortiq

[18]. Buxoro va boshqa klaster loyihalarining to'liq ishga tushishi bu importni kamida 70-80 foizga kamaytirish va valyuta mablag'larini tejash imkonini beradi. Farg'ona texnoparkida amalga oshirilayotgan 16 ta loyiha ham 30 dan ortiq import o'rnini bosuvchi mahsulot turini o'zlashtirish uchun mo'ljallangan [15], bu import tarkibini optimallashtirish va mahalliy qo'shimcha qiymatni oshirish yo'nalishidagi muhim qadamdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, klaster yondashuvi kimyo sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Tahlil natijalari ko'rsatganidek, investitsion qaytim (ROI) klaster sharoitida 18,5 foizga yetadi, bu an'anaviy yondashuvdagi 11,2 foizdan 65 foizga yuqori [1], [3], [14]. Loyihalar bajariluvchi darajasi klasterlarda 82 foizni tashkil etib, an'anaviy tizimdan 18 foiz bandga ustun turadi. Ushbu natijalar Portnering klasterlar tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi degan nazariy qarashini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [2].

Ikkinchidan, O'zbekiston kimyo sanoati klasterlari shakllanishning dastlabki bosqichida bo'lib, ularning to'liq rivojlanishi uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Joriy holatda investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi 60-69 foizni tashkil etmoqda [1, 4], bu ko'rsatkich yetarli emas va boshqaruv

mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi. Xalqaro tajriba - Chemelot, NEPIC va TEDA klasterlari - O'zbekiston uchun ham ijobiy, ham ogohlantiruvchi darslarni taqdim etadi [3, 13, 16].

Uchinchidan, Buxoro gaz-kimyo majmuasi (3,3 mlrd AQSh dollari) va Navoiy kimyo texnoparki (1 mlrd AQSh dollarlik Air Products investitsiyasi) klaster yondashuvining O'zbekiston sharoitida amaliy tatbiq etilishining konkret misollari sifatida baholandi [1, 18, 19]. Ushbu loyihalar nafaqat investitsion samaradorlikni, balki tarmoqning eksport salohiyatini va innovatsion rivojlanishini ham sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Har bir kimyo klasterida markazlashtirilgan loyiha boshqaruv idorasi (PMO) tashkil etish lozim. PMO investitsion loyihalarning rejalashtirish, amalga oshirish va monitoring bosqichlarini koordinatsiyalaydi, FEED metodologiyasi asosida texnik-iqtisodiy asoslash sifatini oshiradi [12].

2. Klaster ichidagi massa va energiya integratsiyasi tizimini joriy etish zarur. Shehab va boshqalar tajribasi ko'rsatganidek [9], kimyoviy korxonalar o'rtasidagi resurs almashinuvi xarajatlarni 24 foizga kamaytirish imkonini beradi.

3. Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish (Triple Helix modeli) kerak [21]. Klaster hududida ixtisoslashtirilgan kadrlar

tayyorlash markazlari, kimyo-texnologik laboratoriyalar va innovatsion inkubatorlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

4. Xalqaro klaster hamkorligini rivojlantirish lozim. NEPIC tajribasiga o'xshash tarzda [16], O'zbekiston kimyo klasterlari Yevropa, Xitoy va Hindiston kimyo klasterlari bilan hamkorlik memorandumlari (MOU) imzolashi va o'zaro tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yishi kerak.

5. Klasterlarda raqamli transformatsiya dasturini amalga oshirish zarur. Raqamli egizak (digital twin), BIM va ma'lumotlar tahlili texnologiyalarini joriy etish loyihalar tsikl vaqtini 50 foizga, xarajatlarni 35 foizga qisqartirish imkonini beradi [12].

6. Barqaror rivojlanish tamoyillarini investitsion loyihalarga integratsiyalash kerak. TEDA tajribasi [3] ko'rsatganidek, qayta tiklanadigan energiya manbalari va past uglerodli texnologiyalar investitsion jozibadorlikni oshiradi va xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarida investitsion loyihalarni boshqarish samaradorligini 40-65 foizga oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va tarmoqning innovatsion rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlar klaster yondashuvining individual kimyo korxonalari darajasidagi tatbiqi, kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyalari va raqamli

transformatsiya natijalarini chuqurroq o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston kimyo sanoati klasterlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat-xususiy sheriklik samaradorligiga bog'liq. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, eng muvaffaqiyatli klasterlar davlat qo'llab-quvvatlashi (soliq imtiyozlari, infratuzilma, tartibga solish muhiti) va xususiy sektorning tashabbuskorligi (investitsiyalar, texnologiyalar, boshqaruv tajribasi) uyg'unlashgan muhitda shakllanadi [21, 25]. O'zbekiston hukumatining Qarakul erkin iqtisodiy zonasida xorijiy valyutada biznes yuritish huquqi, soliq imtiyozlari va uzluksiz energiya ta'minoti kafolatlari kabi chora-tadbirlar [19] aynan shu tamoyilga amal qilishining yaqqol dalilidir.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilgan xulosasi sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: klaster yondashuvi nafaqat investitsion samaradorlikni miqdoriy jihatdan oshiradi, balki kimyo sanoatining sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlaydi. Integratsiyalashgan investitsion boshqaruv, innovatsion diffuziya, resurs optimallashtirish va xalqaro hamkorlik - bular klaster yondashuvining to'rtta asosiy ustuni bo'lib, ularning har biri alohida-alohida emas, balki birgalikda sinergik samara beradi. O'zbekiston kimyo sanoati uchun bu - xom ashyoga asoslangan ishlab chiqarishdan yuqori qo'shimcha qiymatli, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan tarmoqqa transformatsiyalanish imkoniyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Trade.gov. (2023). "Uzbekistan — Chemicals." U.S. Department of Commerce, International Trade Administration. URL: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-chemicals>
2. Porter, M.E. (1998). "Clusters and the New Economics of Competition." Harvard Business Review, 76(6), pp. 77-90. URL: <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=46852>
3. World Economic Forum. (2024). "Industrial Clusters: Harness Their Collaborative Potential." WEF Insight Report. URL: <https://www.weforum.org/stories/2024/01/harness-collaborative-potential-industrial-clusters/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirish maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6231852>
5. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. London: Macmillan. ISBN: 978-0684841472.

6. Delgado, M., Porter, M.E., Stern, S. (2014). "Clusters, Convergence, and Economic Performance." *Research Policy*, 43(10), pp. 1785-1799. DOI: 10.1016/j.respol.2014.05.007
7. Ketels, C., Memedovic, O. (2009). "From Clusters to Cluster-Based Economic Development." *International Journal of Technological Learning, Innovation and Development*, 1(3), pp. 375-392.
8. Al-Mohannadi, D.M., Shehab, M., Linke, P. (2019). "Chemical Production Process Portfolio Optimization." *Energy Strategy Reviews*, Vol. 26, Article 100403. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0263876221000137>
9. Shehab, M., Al-Mohannadi, D.M., Linke, P. (2022). "Chemical Production Process Portfolio Optimization Considering Resource Integration." *Chemical Engineering Research and Design*, Vol. 178, pp. 350-362. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0263876222000223>
10. Eurasian Research Institute. (2024). "Industrial Policy of Uzbekistan." ERI Policy Paper. URL: <https://www.eurasian-research.org/publication/industrial-policy-of-uzbekistan/>
11. Kudaynazarova, D. (2025). "Chemical Industry in Uzbekistan: Challenges and Development." *Green Economy and Development*, 3(7). DOI: 10.5281/zenodo.15929862. URL: <https://www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6329>
12. Wagner, R. (2018). "Projects and Project Management in Chemical Industry." IPMA International Project Management Association. URL: <https://www.ipma.world/projects-project-management-chemical-industry/>
13. Wesseling, J.H., et al. (2022). "Industrial Clustering as a Barrier and an Enabler for Deep Emission Reduction: A Case Study of a Dutch Chemical Cluster." *Climate Policy*, 22(8), pp. 1026-1041. URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/14693062.2022.2025755>
14. UNIDO. (2020). *Industrial Development Report 2020: Industrializing in the Digital Age*. United Nations Industrial Development Organization. URL: <https://www.unido.org/resources/publications/flagship-publications/industrial-development-report-series>
15. Diplomatmagazine.eu. (2023). "Chemical Industry of Uzbekistan: Potential of the Chemical Industry." URL: <https://diplomatmagazine.eu/2023/06/05/chemical-industry-of-uzbekistan-potential-of-the-chemical-industry/>
16. Wikipedia. (2023). "North East of England Process Industry Cluster (NEPIC)." URL: https://en.wikipedia.org/wiki/North_East_of_England_Process_Industry_Cluster
17. Gazeta.uz. (2026). "O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2025-yilda 7,7 foizga o'sib, 147 mlrd dollardan oshdi." URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/23/yim-2025/>

18. Times of Central Asia. (2024). "Uzbekistan Aims to Become One of World's Largest Producers of Olefins." URL: <https://timesca.com/uzbekistan-aims-to-become-one-of-worlds-largest-producers-of-olefins/>
19. Oil & Gas Journal. (2024). "Uzbekistan's Methanol-to-Olefins Complex Under Construction." URL: <https://www.ogj.com/refining-processing/petrochemicals/article/14297663/uzbekistans-methanol-to-olefins-complex-under-construction>
20. Indiplomacy. (2025). "Tashkent Forum Addresses Global Trade Fragmentation and Chemical Industry Growth." URL: <https://indiplomacy.com/2025/06/12/tashkent-forum-addresses-global-trade-fragmentation-and-chemical-industry-growth/>
21. Enterprise Development. (2013). "Guidelines for Cluster Development: A Handbook." EU-funded project: Support to Cluster Development in Croatia. URL: <https://www.enterprise-development.org/wp-content/uploads/GuidelinesforClusterDevelopment.pdf>
22. Indiana Business Research Center. (2015). "Industry Clusters and Economic Development." Indiana Business Review, Spring 2015. URL: <https://www.ibrc.indiana.edu/ibr/2015/spring/article2.html>
23. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
24. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
25. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.
26. Swords, J. (2013). "Michael Porter's Cluster Theory as a Local and Regional Development Tool." *Local Economy*, 28(4), pp. 369-383. DOI: 10.1177/0269094213475855
27. See.news. (2023). "Chemical Industry of Uzbekistan." URL: <https://see.news/chemical-industry-of-uzbekistan>
28. Anggoro, Y. (2013). "Theory of Industry Clusters." University of North Carolina at Charlotte. URL: <https://yudoanggoro.wordpress.com/2013/02/06/theory-of-industry-clusters/>

UO'K: 334.72.02:330.34(575.1)

Mamasoatov Dilshod Ravshanovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi, PhD
e-mail: dilshodbekmamasoatov@gmail.com
Orcid: 0009-0003-0518-4793

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI: INSTITUTSIONAL, MOLİYAVIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini tizimli tahlil qilinib, ularning tasnifini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish yo'llari batafsil asoslab berilgan. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari uch asosiy guruhga — institutsional-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy-infratuzilmaviy mexanizmlarga tasniflangan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyektlari, rivojlantirish mexanizmlari, institutsional mexanizmlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, biznes muhiti, sanoat kooperatsiyasi, kreditlash

Аннотация: В данной статье проведён системный анализ механизмов развития деятельности субъектов предпринимательства, обоснованы направления совершенствования их классификации и повышения эффективности. Механизмы развития деятельности субъектов предпринимательства классифицированы на три основные группы — институционально-правовые, финансово-экономические и организационно-инфраструктурные механизмы.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, механизмы развития, институциональные механизмы, финансовая поддержка, бизнес-среда, промышленная кооперация, кредитование.

Annotation: This article provides a systematic analysis of the mechanisms for developing the activities of business entities and substantiates ways to improve their classification and enhance their effectiveness. The mechanisms for developing the activities of business entities are classified into three main groups: institutional-legal, financial-economic, and organizational-infrastructure mechanisms.

Keywords: business entities, development mechanisms, institutional mechanisms, financial support, business environment, industrial cooperation, lending.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlari innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va bandlikning asosiy harakatlantiruvchi

kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, ularning shakllanishi va o'sishi jarayoni yuqori risklar va to'siqlar bilan bog'liq bo'lib, bu ularni qo'llab-

quvvatlash va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini izlash zaruratini keltirib chiqarad]. Qaysi omillar – davlat tomonidan tartibga solish, kapital mavjudligi yoki ijtimoiy-madaniy muhit – hal qiluvchi rol o'ynashi masalasi faol ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ham "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi[2].

Tadbirkorlik iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlarning ko'pligiga qaramay, klassik nazariyalar (Y.Shumpeter maktabi) va tarmoq o'zaro hamkorligi hamda ekotizim yondashuviga urg'u beradigan zamonaviy kontseptsiyalar o'rtasida nazariy tafovut mavjud. Ko'pgina ishlar tadbirkorlikning makroiqtisodiy ta'siriga yoki tadbirkorning mikro darajadagi psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratadi, ammo mexanizmlarning o'zini – ya'ni resurslar va institutsional shart-sharoitlarni barqaror tadbirkorlik natijasiga aylantirish usullarini – yetarlicha o'rganmaydi.

Adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari masalasi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Eshmatov A.I. (2025) [3] tomonidan mintaqada tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan bo'lib, unda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlangan. Nutfulloyev T.G'. (2025) esa tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish masalalarini o'rgangan[4].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini kompleks o'rganish va tahlil qilish maqsadida nazariy va empirik metodlarning uyg'unligi ta'minlangan bo'lib, tadqiqot metodologiyasi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarni qamrab oladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini iqtisodiy nazariya, institutsional iqtisodiyot va tadbirkorlik sotsiologiyasi sohasidagi ilmiy qarashlar, konseptual yondashuvlar hamda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash masalalariga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar tashkil etadi.

Natijalar

Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari aniqlashtirildi va ularning mualliflik tasnifi ishlab chiqildi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish

mexanizmlari deganda, davlat va jamiyat tomonidan tadbirkorlik tuzilmalarining barqaror faoliyat yuritishi, ularning iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan institutsional, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy vositalar, usullar hamda instrumentlarning yaxlit tizimi tushuniladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari murakkab, ko'p tarkibli va dinamik tizim bo'lib, ularni quyidagi uch asosiy guruhga tasniflash maqsadga muvofiqligi asoslandi:

Birinchi guruh – institutsional-huquqiy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini, "o'yin qoidalari"ni belgilab beradi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Qonunchilik bazasi – tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar majmui. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik Kodeksi, Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlari tashkil etadi.

- Normativ-huquqiy hujjatlar – Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va idoralarning me'yoriy hujjatlari.

- Institutsional tuzilmalar – tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi davlat organlari va muassasalari: Biznes-ombudsman instituti, Kichik biznes va tadbirkorlikni

rivojlantirish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Bosh vazir qabulxonalari, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va boshqalar.

Ikkinchi guruh – moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning investitsion faolligini oshirish va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Kreditlash mexanizmlari – imtiyozli kreditlar, mikrokreditlar, lizing, faktoring va boshqa kredit mahsulotlari. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash Tijorat banklari, Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat jamg'armasi orqali amalga oshiriladi.

- Subsidiyalash va grantlar – tadbirkorlik loyihalarini davlat byudjeti mablag'lari, xalqaro moliya institutlari grantlari hisobidan qo'llab-quvvatlash.

- Soliq imtiyozlari – tadbirkorlik subyektlari uchun soliq stavkalarini pasaytirish, soliq ta'tillari, soddalashtirilgan soliq tizimlari.

- Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat jamg'armasi – 200 milliard so'm va 50 million dollar mablag'ga ega bo'lgan ushbu jamg'arma tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

Uchinchi guruh – tashkiliy-infratuzilmaviy mexanizmlar. Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish, ularning o'zaro

hamkorligi va tarmoq aloqalarini rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Biznes-inkubatorlar va texnoparklar – yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga ofis maydoni, ji-hozlar, konsalting xizmatlari ko'rsatish orqali ularning dastlabki bosqichda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi in-fratuzilma obyektlari.

- Xizmat ko'rsatish markazlari – Davlat xizmatlari markazlari, Ko'p funksiyali xizmat ko'rsatish markazlari tadbirkorlarga davlat xizmatlarini "ya-gona darcha" tamoyili asosida ko'rsa-tadi.

- Kooperatsiya yarmarkalari va elektron platformalar – yirik korxonalar va kichik biznes o'rtasida kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga xizmat qilu-vchi tadbirlar va "Yagona elektron kooperatsiya birja portali" kabi onlayn platformalar.

- Maslahat va axborot xizmatlari – tadbirkorlarga huquqiy, moliyaviy, marketing bo'yicha maslahatlar berish, axborot bilan ta'minlash tizimi.

Tadqiqot natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mex-anizmlari uch asosiy guruhga tas-niflandi (1-jadval).

1-jadval.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining tas-nifi

Mexanizmlar guruhi	Asosiy elementlar	Qo'llash shakllari	Kutilayotgan natija
Institutsional-huquqiy mexanizmlar	Qonunchilik ba-zasi, normativ-huquqiy hu-jjatlar, institut-sional tuzilmalar	Davlat ro'yxatidan o't-kazishni sodda-lashtirish, ruxsatnoma-lar tizimini optimal-lashtirish, Biznes-om-budsman instituti	Tranzaksion xa-rajatlarni ka-maytirish, biznes muhitini yaxshilash
Moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar	Kreditlash, sub-sidiyalash, soliq imtiyozlari, grantlar	Imtiyozli kreditlar, mikromoliyalash, Tad-birkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat jamg'armasi (200 mlrd so'm va 50 mln dollar)	Moliyaviy resurslardan foydalanish im-koniyatini ken-gaytirish
Tashkiliy-infratuzilmaviy mexanizmlar	Biznes-inkuba-torlar, texnoparklar, xizmat ko'rsat-ish markazlari	Davlat xizmatlari markazlari, Bosh vazir qabulxonalari, kooper-atsiya yarmarkalari, "Yagona elektron	Infratuzilmaviy qulayliklar yarat-ish, tarmoq hamkorligini rivojlantirish

		kooperatsiya birja portali"	
--	--	-----------------------------	--

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari sezilarli darajada takomillashtirilgan. 2019-2025 yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan:

1. *Tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi*: 2025-yilning 6 oyida tadbirkorlik subyektlari soni 60 mingga ortgan .

2. *Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning kuchaytirilishi*: 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son qarori bilan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilib, 2025-2026 yillarda tajriba-sinov tariqasida qarz ajratish uchun 30 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan .

3. *Murojaatlarni ko'rib chiqish tizimining takomillashuvi*: Bosh vazir qabulxonalari tashkil etilganidan keyingi dastlabki uch oyda kelib tushgan 12 mingdan ziyod murojaatning 75 foizi joyida hal qilingan .

4. *Soliq tizimining optimallashtirilishi*: 2020-yildan boshlab soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirilib, soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish va bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlari joriy etilgan.

Muhokama

Tadqiqot doirasida olingan natijalar tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslarini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Olingan natijalarni mavjud ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalar bilan taqqoslaganda bir qator muhim jihatlar namoyon bo'ladi.

Institutsional yondashuv nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari D. Nort va U. Baumolning institutsional muhitning iqtisodiy rivojlanishdagi hal qiluvchi roli haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi. Nortning ta'kidlashicha, institutlar – bu jamiyatdagi "o'yin qoidalari" bo'lib, ular insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi . O'zbekiston misolida so'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar (Biznes-ombudsman instituti, Bosh vazir qabulxonalari, "yagona darcha" tizimi) aynan ushbu "o'yin qoidalari"ni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ular tadbirkorlik subyektlari sonining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. Bu esa institutsional mexanizmlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi fundamentalini ko'rsatadi.

Baumol esa tadbirkorlik faolligining yo'nalishi (produktiv, noproductiv yoki destruktiv) institutsional muhit sifatiga bog'liqligini asoslagan . O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tadbirkorlik energiyasining rentalashdan ko'ra, ishlab chiqarish, innovatsiyalar va eksportga yo'naltirilishini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, kreditlash jarayonining markazlashganligi, yer ajratishdagi muammolar kabi institutsional

kamchiliklar hanuz tadbirkorlikning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Tadbirkorlik ekotizimlari konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, tadqiqot natijalari J. Mur va D. Isenbergning ekotizim yondashuvi tadbirkorlikni rivojlantirishda kompleks qarashlarni talab etishi haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi. Tadbirkorlik ekotizimi – bu tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi o'zaro bog'liq elementlar (davlat, xususiy sektor, ta'lim muassasalari, moliya institutlari, infratuzilma) majmuidir. O'zbekistonda so'nggi yillarda yaratilgan "mutlaqo yangi tizim" (Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Bosh vazir qabulxonalari, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, Adliya vazirligi va joylardagi hokimlarning birinchi o'rinbosarlari boshchiligidagi iqtisodiyot kompleksi tashkilotlarining hamjihatlikda ishlashi) aynan ekotizim yondashuvining amaliy ifodasi sifatida baholanishi mumkin. Bu tizimning muvofiqlashtiruvchi rol o'ynashi tadbirkorlik subyektlari muammolarini kompleks hal qilish imkonini bermoqda.

Biroq, ekotizim elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlik hanuz yetarli darajada emas. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar bilan hamkorligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi, venchur moliyalashtirish tizimining mavjud emasligi O'zbekiston tadbirkorlik ekotizimining to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Resurs yondashuvi nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi ularning moliyaviy, moddiy-texnika, insoniy va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq. J. Barney tomonidan asoslangan resursli konsepsiyaga ko'ra, firmaning raqobatbardoshligi uning noyob va takrorlanmas resurslarga egaligi bilan belgilanadi[5]. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining resurslar bilan ta'minlanish darajasi tahlil qilinganda, moliyaviy resurslar (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar) bilan ta'minlashga ustuvor e'tibor qaratilayotgani, ammo insoniy kapital, innovatsion resurslar, axborot resurslariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani kuzatiladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun xavf tug'diradi.

Xulosa

Olib borilgan kompleks tadqiqot natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslari, ularning tasnifi, O'zbekistonda qo'llanilayotgan mexanizmlarning amaldagi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari murakkab, ko'p tarkibli tizim bo'lib, ularni institutsional-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy-infratuzilmaviy mexanizmlarga tasniflash maqsadga muvofiq. Ushbu mexanizmlarning har biri

o'ziga xos vositalar va ta'sir yo'nalishlariga ega.

2. O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari sezilarli darajada takomillashtirilgan. Natijada tadbirkorlik subyektlari soni 60 mingga oshgan, kreditlash hajmi kengaygan, davlat xizmatlari ko'rsatish soddalashtirilgan.

3. Mavjud mexanizmlarning samaradorligiga bir qator omillar, jumladan, kreditlash jarayonining markazlashganligi, yer ajratish tizimidagi kamchiliklar, sanoat kooperatsiyasining sustligi, "o'rta biznes" toifasining mavjud emasligi va davlat xizmatlarining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda choralar ko'rish zarur:

- "O'rta biznes" toifasini qonunchilik darajasida joriy etish

va ularni qo'llab-quvvatlashning alohida mexanizmlarini ishlab chiqish;


- kreditlash jarayonlarini markazsizlashtirish va bank xizmatlari ko'rsatish tizimini soddalashtirish;
- yer ajratish jarayonlarining to'liq shaffofligini ta'minlash va elektron savdolar amaliyotini kengaytirish;
- yirik sanoat korxonalari va kichik biznes o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- davlat xizmatlarining to'liq elektronlashtirilishini ta'minlash.

Kelgusidagi tadqiqotlar istiqbollari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, ularning samaradorligini baholashning aniq mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 14-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2024. – 5-aprel.
3. Eshmatov, A. I. (2025). Mintaqada tadbirkorlik salohiyati rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Tadqiqotlar*, 60(1), 123–129.

4. Nutfulloyev, T. G'. (2025). Tadbirkorlik subyektlarida biznes jarayonlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
5. Solidjonov, D. Z. (2021). The impact of social media on education: advantage and disadvantage. *Экономика и социум*, (3-1 (82)), 284-288.



UDK 821.111(73)**Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna***Alfraganus University NOTT**Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi,**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)**Uzbekistan, Tashkent**shaxnozayuldoshova1991@gmail.com**Orcid ID 0009-0009-9553-6353*

EDGAR ALLAN POE VA UNING ADABIY USLUBINING ZAMONAVIY AMERIKA ILMIY-FANTASTIK ADABIYOTIGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Edgar Allan Po (1809–1849) ijodiy merosining zamonaviy Amerika ilmiy-fantastik adabiyoti shakllanishi va rivojlanishidagi o'rnini hamda tizimli ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi Poning ilmiy-fantastika janri ildizlaridagi roli to'liq o'rganilmaganligi va uning uslubiy elementlari bugungi kun adabiyoti uchun hamon konseptual ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Maqolada qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanilgan bo'lib, Poning gotik elementlari, psixologizmi va innovatsion narrativ texnikalari keyingi avlod vakillari — Jyul Vern, H.G. Uells, Rey Bredberi, Ayzek Asimov va Uilliam Gibson asarlari bilan qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqotda muallifning "The Unparalleled Adventures of One Hans Pfaall" va "Mellonta Tauta" kabi ilk ilmiy-fantastik asarlari janrning nazariy asoslari sifatida tahlilga tortiladi. Tahlillar natijasida Poning birinchi shaxsdan hikoya qilish uslubi, "hikoya ichida hikoya" strukturasi va syujet bo'ylab orqaga qaytish texnikasi zamonaviy ilmiy-fantastikaning narrativ poydevoriga aylangani aniqlandi. Shuningdek, Poning Avguste Dupin obrazi orqali yaratgan "ratsionator" tipi va murakkab anti-qahramon kontseptsiyasi Filip K. Dik hamda kiberpank janri mualliflari tomonidan muvaffaqiyatli rivojlantirilgani isbotlandi. Poning texnologiyani inson taqdiri bilan bog'liq holda tasvirlashi va distopik satira elementlari zamonaviy spekulativ adabiyot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgani ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Edgar Allan Po nafaqat detektiv va dahshat janrlari asoschisi, balki zamonaviy Amerika ilmiy-fantastikasining asosiy ta'sirchi shaxsi va intellektual manbaidir. Uning pessimistik narrativi va taassurot birligi haqidagi estetik nazariyasi XXI asr ommaviy madaniyati va yangi medialari (kino, video o'yinlar) sharoitida o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Kalit so'zlar: Edgar Allan Po, ilmiy-fantastika, gotik adabiyot, psixologik realizm, hikoya qilish texnikasi, Amerika adabiyoti, detektiv janri, fantastik adabiyot, adabiy ta'sir, modernizm.

ЭДГАР АЛЛАН ПО И ВЛИЯНИЕ ЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО СТИЛЯ НА СОВРЕМЕННУЮ АМЕРИКАНСКУЮ НАУЧНО-ФАНАСТИЧЕСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ

АННОТАЦИЯ

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sabzavot yetishtirishning umumiy hajmi va hududiy ulushlari tarmoqning qaysi hududlarda ko'proq jamlanganini ko'rsatadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, respublika bo'yicha bir hududga to'g'ri keladigan o'rtacha sabzavot yetishtirish hajmi 970,4 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich 1195,8 ming tonnaga yetdi. Bu viloyatning respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 23 foizga ko'proq mahsulot yetishtirayotganini bildiradi. (1-rasm)

Xududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi (ming tonna 2024-yil)




Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Andijon viloyati (15,5%) hissasiga to'g'ri keldi shu bilan

birga, yuqori ulush Samarqand (13,1%), Farg'ona (11,8%), Surxondaryo (10,1%), Toshkent (10,0%), va

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati – 2024 y 95 bet

Namangan (8,7%) viloyatlarida qayd etildi.

2024 yil yanvar – dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulusi (foizda)



10

Strategik ustuvorlik (Donli ekinlar): Don mahsulotlari (79,3%) deyarli to'liq fermer xo'jaliklari zimmasida. Bu davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yirik fermerlik tizimiga tayanishidan dalolat beradi.

Iste'mol bozori va Tomorqa xo'jaligi: Kartoshka (68,8%) va sabzavotlar (58,3%) bo'yicha asosiy yuklama dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda. Bu shuni anglatadiki, aholi kundalik iste'mol


qiladigan mahsulotlarning asosiy qismi aynan kichik maydonlarda, oilaviy mehnat evaziga yetishtirilmoqda.

Tashkilotlarning o'рни: Qishloq xo'jaligi tashkilotlarining ulushi donli ekinlarda eng yuqori (12,4%), boshqa turdagi mahsulotlarda esa hali ham past darajada qolmoqda. Bu esa, ayniqsa, sabzavot va poliz mahsulotlari yo'nalishida zamonaviy klasterlar va intensiv issiqxonalar

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati – 2024 y 92 bet

uchun bozor salohiyati hali juda katta ekanligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



11

Jadvallarni kompleks tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati umumiy sabzavot yetishtirish hajmi bo'yicha respublikada 5- o'rinda (10%) turadi. Biroq qishloq xo'jaligi

tashkilotlari (klasterlar, yirik agrofirma-lar) ulushi bo'yicha (18,6) qolgan bar-cha hududlardan mutlaq ustunlikka ega (o'rtacha ko'rsatkichdan 2-3 barobar yuqori). Bu shuni anglatadiki, Toshkent

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati – 2024 y 88 bet

viloyatida sabzavotchilik ekstensiv (ochiq maydonlarni kengaytirish) usulidan ko'ra, intensiv va sanoat usuliga chuqur ixtisoslashgan

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda respublika miqyosida o'rtacha ko'rsatkichdan 23 foizga yuqori hosildorlik va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining 18,6 foizli ulushi bilan mutlaq yetakchilik qilib, an'anaviy ekstensiv dehqonchilik usulidan yuqori texnologiyali intensiv klaster modeliga o'tish bo'yicha mamlakatimizdagi eng ilg'or va strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Mazkur jarayon viloyat sabzavotchiligini mintaqaviy o'zini-o'zi ta'minlash tizimidan eksportga yo'naltirilgan agrosanoat kompleksiga transformatsiya qilishning yaqqol ifodasidir.

Tadqiqot xulosalari asosida sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy yechimlar taklif etiladi:

1. Klaster integratsiyasini chuqurlashtirish: Qishloq xo'jaligi

tashkilotlarining yuqori salohiyatidan (18,6%) foydalangan holda, kichik dehqon xo'jaliklari va klasterlar o'rtasida kooperativ aloqalarni mustahkamlash. Bu orqali kichik ishlab chiqaruvchilarning innovatsion resurslarga (sertifikatlangan urug'lik, zamonaviy agrotekhnologiyalar) kirishini ta'minlash va mahsulot sifatini xalqaro eksport standartlariga moslashtirish.

2. Raqamli monitoring va resurs tejamkorlik: Intensiv modellar doirasida suv tejoychi texnologiyalar (tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish) hamda raqamli boshqaruv tizimlarini (IoT sensorlar) kengaytirish. Bu, ayniqsa, suv resurslari taqchilligi sharoitida ishlab chiqarish rentabelligini oshirishning yagona barqaror yo'lidir.
3. Qiymat zanjirini diversifikatsiya qilish: Sabzavotchilikda faqat xomashyo yetishtirish bilan cheklanmay, viloyatdagi klasterlar negizida chuqur qayta ishlash quvvatlarini (quritish, muzlatish, qadoqlash) oshirish. Bu

mavsumiylik omilini minimal-
lashtirish va yil davomida eksport
oqimini barqaror saqlash im-
konini beradi.

"intensiv klaster zonolari"ni
loyihalash va ularning logistika
markazlari bilan zanjir hosil qi-
lishini ta'minlash.

4. Ilmiy asoslangan hududiy ixti-
soslashuv: Toshkent viloyati
tajribasini respublikaning boshqa
hududlariga eksport qilishda, har
bir tuman kesimida tuproq-iqlim
sharoitidan kelib chiqqan holda

Ushbu chora-tadbirlar majmui sab-
zavotchilik tarmog'ida nafaqat hajmiy
o'sishni, balki hududiy iqtisodiyotning
yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbar-
doshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) Husanov R., Choriev Q. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: "Iqtisod-
moliya", 2018. (Agrar sektor iqtisodiy tahlili uchun).
- 2) Resh H. M. Hydroponic Food Production: A Definitive Guidebook for the Ad-
vanced Home Gardener and the Commercial Hydroponic Grower. 8th Edi-
tion. CRC Press, 2022. (Gidroponika bo'yicha dunyodagi eng asosiy
qo'llanma).
- 3) Zuyev V., Abdullayev A. Sabzavotchilik. Toshkent: "O'qituvchi", 2014. (Ma-
halliy sabzavot turlari va yetishtirish texnologiyasi).
- 4) Kozlovskaya I. P. Gidroponika: O'simliklarni ozuqaviy eritmalarda yetishtirish
texnologiyasi. O'quv qo'llanma, 2020.
- 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi "Sabzavotchi-
lik sohasini rivojlantirish va aholi tomorqalaridan samarali foydalanishga oid
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-277-sonli qarori.
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston
Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga
mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbek-
iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati . Toshkent, 2024.

- 8) FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti). Good Agricultural Practices for Greenhouse Vegetable Crops in South East European countries. Rome, 2017.
- 9) Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
- 10) Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
- 11) Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.
- 12) World Health Organization (WHO). Global Health Statistics Report. – Geneva, 2023.

A.Islomov*Soft skills markazi rahbari***D.Raxmatullayeva***Soft skills markazi koordinatori*

SOFT SKILLS (YUMSHOQ KO'NIKMALAR)NING ZAMONAVIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORIDAGI ROLI

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XXI asrda inson kapitalini rivojlantirishda soft skills (yumshoq ko'nikmalar)ning o'рни va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinib, global va raqamli sharoitida mazkur ko'nikmalar shaxsning kasbiy va ijtimoiy samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida ekanligi, soft skillsning mohiyati va ularning ta'lim jarayonida shakllanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, halqaro tadqiqotlar asosida ularning mehnat bozoridagi o'рни va professional muvaffaqiyatga ta'siri asoslab berilib, talabalarda soft skillsni shakllantirish jarayonlari va amaliyotga joriy etilishi masalalari keltirilib, an'anaviy ta'limdan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonlariga o'tish zarurati tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: Soft skills, yumshoq ko'nikmalar, inson kapitali, kompetensiyaviy yondashuv, raqamlashuv, globallashuv, ta'lim tizimi, mehnat bozori, kasbiy kompetensiya, kommunikatsiya ko'nikmalari, jamoada ishlash, muammo yechish, kasbiy rivojlanish, ta'lim samaradorligi.

РОЛЬ SOFT SKILLS (ГИБКИХ НАВЫКОВ) В СОВРЕМЕННОМ ОБ- РАЗОВАНИИ И НА РЫНКЕ ТРУДА

Аннотация.

В данной статье научно анализируется роль и значение soft skills (гибких навыков) в развитии человеческого капитала в XXI веке, а также обосновывается, что в условиях глобализации и цифровизации данные навыки являются ключевым фактором, определяющим профессиональную и социальную эффективность личности. Раскрываются сущность soft skills и особенности их формирования в образовательном процессе. На основе международных исследований обосновывается их роль на рынке труда и влияние на профессиональный успех. Рассматриваются процессы формирования soft skills у студентов и вопросы их внедрения в практику, а также анализируется необходимость перехода от традиционного образования к компетентностному подходу.

Ключевые слова: Soft skills, гибкие навыки, человеческий капитал, компетентностный подход, цифровизация, глобализация, система образования, рынок труда, профессиональная компетенция, коммуникативные навыки, работа в команде, решение проблем, профессиональное развитие, эффективность образования.

THE ROLE OF SOFT SKILLS IN MODERN EDUCATION AND THE LABOR MARKET

Abstract.

This article provides a scientific analysis of the role and importance of soft skills in the development of human capital in the 21st century. It substantiates that in the context of globalization and digital transformation, soft skills are a key factor determining an individual's professional and social effectiveness. The essence of soft skills and the features of their formation in the educational process are examined. Based on international research, their role in the labor market and impact on professional success are justified. The processes of developing soft skills among students and their implementation in practice are also discussed, along with the necessity of transitioning from traditional education to a competency-based approach.

Keywords: Soft skills, human capital, competency-based approach, digitalization, globalization, education system, labor market, professional competence, communication skills, teamwork, problem-solving, professional development, educational effectiveness.

Kirish.

XXI asr jamiyat taraqqiyoti bilimlar iqtisodiyoti, raqamlashtirish va globallashuv jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu sharoitda inson kapitali sifati davlatlar va tashkilotlar raqobatbardoshligining asosiy omiliga aylanmoqda. Inson kapitalining sifati esa nafaqat kasbiy bilimlar va texnik ko'nikmalar (hard skills), balki shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlar — soft skills bilan belgilanadi. So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar, jumladan Jahon iqtisodiy forumi, UNESCO va OECD hisobotlarida ham yumshoq ko'nikmalar kelajak kasblari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanmoqda.

An'anaviy ta'lim tizimi asosan bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim shaxsni kompleks rivojlantirish, ya'ni bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlarni uyg'un

shakllantirishni maqsad qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan soft skills shaxsning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ijtimoiy moslashuvi va uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi muhim komponent sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada soft skills tushunchasining mohiyati, uning zamonaviy ta'lim va mehnat bozoridagi o'rni hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi.

Soft skills tushunchasi psixologiya, pedagogika, menejment va sotsiologiya fanlari kesishmasida shakllangan bo'lib, u shaxsning muvoqot, hamkorlik, muammolarni hal qilish, emotsional barqarorlik va o'zini boshqarish kabi qobiliyatlarini qamrab oladi. Ushbu ko'nikmalar ko'pincha universal xarakterga ega bo'lib, turli kasb va faoliyat turlarida birdek ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham soft

skills baʼzan “koʻchma kompetensiyalar” deb ham ataladi.

Mehnat bozorida soft skills'ning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ish beruvchilar nafaqat texnik jihatdan bilimli, balki jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, mas'uliyatli va moslashuvchan xodimlarga ehtiyoj sezmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professional muvaffaqiyatning katta qismi aynan yumshoq ko'nikmalar bilan bog'liq. Texnik bilimlar ishga kirishda muhim bo'lsa-da, lavozimda ko'tarilish, yetakchilikka erishish va uzoq muddatli faoliyatda muvaffaqiyat qozonish soft skills darajasiga bevosita bog'liqdir.

Garvard universiteti, Karnegi jamg'armasi va Stenford tadqiqot markazlari tomonidan o'tkazilgan qator tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, insonning kasbiy muvaffaqiyatining taxminan 85 foizi soft skills hissasiga, faqat 15 foizi esa hard skills, ya'ni texnik bilim va kasbiy mahorati hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu statistik ko'rsatkich shuni anglatadiki, inson qanchalik yuqori bilimga ega bo'lmasin, agar u jamoada ishlay olmasa, samarali muloqot qila olmasa yoki o'zini boshqara olmasa, uning kasbiy o'sishi cheklanib qoladi [1].

LinkedIn kompaniyasining Global Talent Trends hisobotlariga ko'ra, ish beruvchilarning 92 foizi soft skillsni hard skills bilan teng yoki undan ham muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, rahbarlarning 89 foizi o'z amaliyotida aynan soft skills yetishmasligi sababli xodimlar ishda muvaffaqiyatsizlikka

uchraganini tan olgan. Bu holat soft skills ishga qabul qilish va kadrlarni saqlab qolishda hal qiluvchi omilga aylanganini ko'rsatadi [2].

McKinsey & Company tahlillariga ko'ra, soft skills yaxshi rivojlangan jamoalarda mehnat unumdorligi 20–25 foizga yuqori, xodimlar almashinuvi esa 30 foizga kam bo'ladi. Bu esa tashkilot uchun moliyaviy barqarorlik va kadrlar bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish imkonini yaratadi [3].

Soft skills'ning muhim tarkibiy qismlaridan biri kommunikativ kompetensiyadir. Muloqot jarayonida fikrni aniq va ravon ifodalash, faol tinglash, bahs-munozaralarda konstruktiv yondashuvni saqlash va turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali aloqa o'rnatish professional muhitda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish, ta'lim, boshqaruv va sog'liqni saqlash sohalarida kommunikativ ko'nikmalar mutaxassis faoliyatining asosini tashkil etadi.

Yumshoq ko'nikmalarning yana bir muhim elementi — emotsional intellektidir. Emotsional intellekt insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsional holatini tushunish qobiliyatini ifodalaydi. Emotsional intellekti rivojlangan shaxs stressli vaziyatlarda muvozanatni saqlay oladi, nizolarni keskinlashtirmasdan hal qiladi va sog'lom psixologik muhit yaratishga hissa qo'shadi. Bu jihat, ayniqsa, jamoaviy faoliyatda va yetakchilik lavozimlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik psixolog Deniel Gollmanning tadqiqotlariga ko'ra, rahbar faoliyatidagi umumiy muvaffaqiyatning 70 foizdan ortig'i emotsional intellekt, ya'ni soft skills tarkibiga kiruvchi qobiliyatlar bilan bog'liq. Emotsional intellekt yuqori bo'lgan rahbarlar jamoada sog'lom psixologik muhit yarata oladi, konfliktlarni konstruktiv hal qiladi va xodimlarni rag'batlantirishda samarali bo'ladi [4].

Soft skills shaxsning muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Zamonaviy jamiyatda tayyor yechimlar kam uchraydi, aksariyat holatlarda murakkab va noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish talab etiladi. Tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muqobil variantlarni solishtirish va oqilona xulosa chiqarish qobiliyatlari shaxsning professional kompetentligini oshiradi. Bu ko'nikmalar nafaqat ish faoliyatida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida soft skills'ni shakllantirish masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar — kompetensiyaga asoslangan ta'lim, andragogika, interfaol metodlar va loyiha asosida o'qitish soft skills'ni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamoaviy ishlanmalar, munozaralar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va treninglar orqali talabalarda yetakchilik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi. Shu tariqa ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, shaxsni

hayotga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham soft skillsning samardorligini tasdiqlaydi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, soft skillsga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarida qatnashgan talabalarning o'zlashtirish darajasi o'rtacha 15–20 foizga, o'quv jarayonidagi faolligi esa 25 foizga oshgan. Loyiha asosida va jamoaviy ish shakllariga asoslangan ta'limda talabalarning jamoada ishlash ko'nikmalari 30 foizga yaxshilangani qayd etilgan. Bu esa soft skills bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita ekanini ko'rsatadi [5].

Soft skills'ning ahamiyati raqamli transformatsiya sharoitida yanada ortmoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish ko'plab texnik vazifalarni bajarishga qodir bo'lsa-da, insoniy omil — ijodkorlik, empatiya, axloqiy qaror qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyat texnologiyalar bilan to'liq almashtirilmaydi. Shu sababli kelajak mutaxassisi texnik bilimlar bilan bir qatorda yuqori darajadagi soft skills'ga ham ega bo'lishi zarur.

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt rivojlanayotgan sharoitda soft skillsning ahamiyati yanada ortmoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, texnik vazifalarning 40–50 foizi avtomatlashtirilishi mumkin. Ammo empatiya, ijodiy fikrlash, axloqiy qaror qabul qilish kabi soft skills elementlarining 0 foizi to'liq avtomatlashtirilishi mumkin emas. Bu esa kelajakda insonning mehnat

bozoridagi qiymati aynan soft skills orqali belgilanishini anglatadi [6].

METODOLOGIYA (Methods).

Hozirgi globallashuv va raqamlashuv sharoitida mehnat bozoridagi talablar keskin o'zgarib bormoqda. Zamonaviy ish beruvchilar mutaxassislarining faqat kasbiy bilim va texnik ko'nikmalariga (hard skills) emas, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlari, jumladan, hayotiy sifatlariga ham katta e'tibor qaratmoqda. Shu bois, soft skills kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, kompyuter injenering va kiberxavfsizlik sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun jamoada ishlash, samarali muloqot, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiyalarni maqsadli shakllantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Ayni paytda ta'lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta'lim tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg'un joriy etish taklif etilmoqda. Bular: "Hard skills - (ingliz. "qattiq" malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda "Soft skills" - (ingliz. "yumshoq", "moslashuvchan" malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar.

Hard skills (ingl. «kattiq ko'nikmalar») — texnik tomoni bilan bog'liq bo'lgan professional bilim, ko'nikma va mahoratlar yig'indisidir. Ularni mavjudligi topshirilgan ishni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. Shuning uchun ish beruvchi o'z talabnomasida ularga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatadi, ishga talabgor esa o'z rezyumesini «Professional ko'nikmalari» qismiga shu ko'nikmalarini ko'rsatadi.

"Hard" - "qattiq" kompetensiyalarga ega bo'lish uchun muayyan kasb bo'yicha aniq bilim zarur bo'ladi va bu kompetensiyalarning mavjudligi imtihon o'tkazish orqali aniqlanadi.

"Soft" - "yumshoq" kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlash va hok.) esa ko'p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

"Soft skills" tushunchasi tadqiqot predmeti (obyekti) sifatida ilmiy muomalaga kirishi ilk marta 1959—1972 yillarda AQSh armiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash jarayonidagi islohotlar bilan bog'liq. Askarlarning shaxsiy va jangovor kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarga rahbarlik qilgan psixolog, ehtiyojlar nazariyasi muallifi, mavzular bo'yicha apperseptiv testlarni baholashning yangi metodikasini ishlab chiqqan professor Devid Makkleland AQSh

davlat departamenti ximatiga xodimlarni tanlash jarayonida ilk marta “yumshoq” (soft) kompetensiyalar va ularni baholash tushunchasini qo'llaydi.

Zamonaviy dunyoda va yaqin kelajakda ta'lim olish, hayotiy muhim ehtiyojlar uchun zarur daromadga ega bo'lish va xizmat pillapoyalaridan yuqorilab borish (o'sish) uchun avvalo mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishning asosiy sharti bo'lgan kelajak kompetensiyalarini egallashi talab etiladi.

“Soft” kompetensiyalar ishchi kasbning o'ziga emas, hayotiy tajriba va bilimlarga taalluqli shaxsiy ko'nikmalardir. Shaxslararo muloqot ko'nikmalari, hayotiy tajribalar, ijtimoiy bilimlar, XXI asrning zamonaviy bilimlari majmuidir”.

TADQIQOT NATIJASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida Alfraganus universiteti Soft skills markazi tomonidan 120 soatga mo'ljallangan “Soft skills kompetensiyalarini shakllantirish” o'quv dasturi ishlab chiqilib, universitet uslubiy kengashida tasdiqlangan (2025 yil 27 martdagi 3-son qarori).

Dastur tajriba-sinov tariqasida “Raqamli texnologiyalar” fakultetining “Kompyuter injenering” va “Kiberxavfsizlik injenering” yo'nalishlarida tahsil olayotgan 3-kurs talabalari o'rtasida joriy etildi. Tajribada jami 78 nafar talaba ishtirok etib, o'quv jarayoni 2025 yil 9–13 dekabr kunlari mobaynida modulli tizim asosida tashkil etildi. O'quv jarayoni besh kunlik

modulli dastur asosida amalga oshirildi.

Birinchi kuni soft skills kompetensiyalarining mohiyati, turlari va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati yoritildi. Bunda talabalar o'z-o'zini diagnostika qilish orqali shaxsiy imkoniyatlari va rivojlanish nuqtalarini aniqladilar.

Ikkinchi kuni emotsional intellekt tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda IQ va EQ o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarda stress holatlarini boshqarish va his-tuyg'ularni nazorat qilish ko'nikmalari rivojlantirildi.

Uchinchi kuni samarali muloqot va kommunikatsiya, faol tinglash va jamoada ishlash kompetensiyalariga e'tibor qaratildi.

To'rtinchi kuni talabalarning hayotiy maqsadlari va qadriyatlarini tahlil qilinib, shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ko'nikmalari shakllantirildi.

Beshinchi kuni esa har bir ishtirokchi individual rivojlanish rejasini ishlab chiqib, taqdim qildi.

Besh kun davomida modulli texnologiya asosida tashkil etilgan kursning samaradorligini aniqlash maqsadida ishtirokchi talabalar o'rtasida yakuniy so'rovnoma va baholash ishlari o'tkazildi. So'rovnomada jami 78 nafar talaba qatnashib, olingan natijalar tahlil qilindi.

“Dars jarayonlaridan umumiy qoniqish darajasi” bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 94,9%i (74 nafar) o'quv jarayonini 5 ball

(yuqori ko'rsatikich) bilan baholagan. 3,8% ishtirokchi (3 nafar) 4 ball (o'rta) bergan bo'lib, faqat 1 nafar ishtirokchi (1,3%) past baholashni qayd etgan. Bu natijalar o'quv jarayonidan umumiy qoniqish darajasi juda yuqori ekanini ko'rsatadi.

“Har bir kunning mavzularini qanday baholaysiz?” savoliga berilgan javoblar tahlili ham yuqori natijalarni namoyon etdi: 73 nafar (93,6%) ishtirokchi 5 ball (a'lo); 4 nafar (5,1%) ishtirokchi 4 ball; 1 nafar (1,3%) ishtirokchi 1 ball bilan baholadilar.

Bu natijalar o'quv dasturining mavzulari ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgani, amaliyot bilan uyg'unlashgani va talabalar uchun tushunarli hamda qiziqarli ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, 5 ball bilan baholashning 90% dan yuqori bo'lishi dastur mazmunining yuqori sifatda ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari Alfraganus universitetida joriy etilgan “Soft skills kompetensiyalarini shakllantirish” o'quv dasturi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida samarali ekanini ko'rsatdi.

XULOSA

Soft skills shaxsning ijtimoiy farovonligi va hayot sifati bilan ham

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

chambarchas bog'liq. O'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, maqsad qo'yish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalari insonning shaxsiy hayotida muvozanatni ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarda empatiya va tolerantlikning mavjudligi esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, soft skills zamonaviy jamiyat va mehnat bozorining ajralmas talabi hisoblanadi. Ular shaxsning kasbiy bilimlarini samarali qo'llashga, ijtimoiy muhitga moslashishga va uzluksiz rivojlanishga imkon yaratadi. Yumshoq ko'nikmalar nafaqat professional muvaffaqiyatni, balki shaxsiy farovonlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Demak, ta'lim tizimida soft skills'ni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv barkamol, mas'uliyatli va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonida soft skills'ni shakllantirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

1. www.nationalsoftskills.org/the-real-skills-gap/
2. <https://news.linkedin.com/2019/January/linkedin-releases-2019-global-talent-trends-report>
3. <https://www.mckinsey.com/capabilities/people-and-organizational-performance/our-insights/increasing-your-return-on-talent-the-moves-and-metrics-that-matter>

4. <https://business.nab.com.au/insights-daniel-goleman-world-business-forum-24787/>
5. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/12/oecd-skills-outlook-2025_ac37c7d4/26163cd3-en.pdf
6. <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2023/1/>
7. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
8. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
9. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.

Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, "Moliya" kafedrası

i.f.f.d. (PhD), v.b., dotsenti,

Sharifboyeva Shahriya G'ulomjonovna

Alfraganus universiteti Iqtisodiyot fakulteti

"Bank ishi va audit" yo'nalishi talabasi

xusnoraxasanova60@gmail.com

HUDUDIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI, TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI VA JAHON TAJRIBASI

Annotatsiya. Hududiy biznesni rivojlantirish hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va mahalliy infratuzilmani yaxshilashga asoslanadi. 2017-2024-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, davlat dasturlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada kengaygani ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning institutsional asoslari hamda uning aholi farovonligiga ko'rsatayotgan ta'siri chuqur tahlil etiladi.

Kalit so'zlar Hududiy iqtisodiyot, tadbirkorlik, klaster tizimi, tashkiliy-huquqiy asoslar, innovatsion korxona, davlat qo'llab-quvvatlovi, raqobatbardoshlik, erkin iqtisodiy zonalar, Yalpi Hududiy Mahsulot (YAHM), institutsional asoslar, aglomeratsiya samarasi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. Региональное развитие бизнеса основано на выявлении точек экономического роста региона, эффективном использовании ресурсов и улучшении местной инфраструктуры. На научной основе показано, что в результате экономических реформ, государственных программ и внедрения цифровых технологий, реализованных в 2017-2024 годах, значительно возросла доля малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике. В статье подробно анализируются институциональные основы развития предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан и ее влияние на благосостояние населения.

Ключевые слова. Территориальная экономика, предпринимательство, кластерная система, организационно-правовые основы, инновационное предприятие, Государственная поддержка, конкурентоспособность, свободные

экономические зоны, валовой региональный продукт (ВРП), институциональные основы, агломерационный эффект, Цифровая экономика.

Abstract. Regional business development is based on identifying the region's economic growth points, efficient use of resources, and improving local infrastructure. The scientific basis is provided for the significant expansion of the share of small businesses and private entrepreneurship in the economy as a result of economic reforms, state programs, and the introduction of digital technologies implemented in 2017-2024. This article provides a detailed analysis of the institutional foundations of the development of entrepreneurial activity in the Republic of Uzbekistan and its impact on the well-being of the population.

Keywords. Regional economy, entrepreneurship, cluster system, organizational and legal framework, innovative enterprise, state support, competitiveness, free economic zones, Gross Regional Product (GDP), institutional framework, agglomeration effect, digital economy.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda hududlarning barqaror rivojlanishi bevosita tadbirkorlik muhitining samaradorligiga bog'liq. Hududiy biznes nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki mahalliy infratuzilmani yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Hududiy biznesni rivojlantirish — mahalliy resurslardan samarali foydalanish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Asosiy tamoyillar: mahalliy xomashyoga tayanish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirishdir. Huquqiy asoslar qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Hududiy biznesni rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Mahalliy resurslardan samarali foydalanish: Hududning xomashyo, mehnat va tabiiy imkoniyatlarini maksimal jalb etish.

- Tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish: Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni oshirish.
- Infratuzilmani rivojlantirish: Transport, energetika va axborot texnologiyalari tarmoqlarini yaxshilash.
- Ixtisoslashuv va kooperasiya: Hududlarning o'ziga xos tarmoqlarga ixtisoslashuvi va o'zaro hamkorligi.

O'zbekiston Respublikamizda biznes sub'ektlarining tashkiliy asoslari korxona va tashkilotlarning ishchilari soniga ko'ra farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-1987- sonli farmoni imzolandi[1].

Garvard universiteti professori M. Porter hududiy biznesning raqobatbardoshligini uning geografik joylashuvi va klasterlashuvi bilan bog'laydi. "Mintaqalarning boyligi ularning tabiiy resurslarida emas, balki

korxonalarning o'zaro hamkorligi va innovatsion muhit yaratuvchi klasterlarda to'planganidadir. Hududiy biznes klaster orqali resurslarga osonroq kirish imkoniga ega bo'ladi va mahsuldorlikni oshiradi" Pol Krugman (Yangi iqtisodiy geografiya yo'nalishi) [2].

Nobel mukofoti sovrindori P. Krugman biznesning ma'lum bir hududda to'planishini "Agregatsiya samarasi" (Agglomeration economies) bilan tushuntiradi. "Biznes nima uchun ma'lum bir hududda rivojlanadi? Chunki o'sha yerda malakali ishchi kuchi, yetkazib beruvchilar va bozor markazlashgan. Bu 'qor ko'chkisi' effektini beradi: biznes qancha ko'p bo'lsa, xarajatlar shuncha kamayadi va yangi bizneslar o'sha yerga intilaveradi"[3].

Alfred Veber (Sanoat joylashuvi nazariyasi). Nemis iqtisodchisi A. Veber hududiy biznes rivojida minimal xarajatlar tamoyilini ilgari surgan.

"Tadbirkor o'z biznesini tashkil etishda uchta asosiy omilni: transport xarajatlari, mehnat xarajatlari va aglomeratsiya (boshqa korxonalar bilan yaqinlik) foydasini hisobga olishi shart. Biznes o'sha uchrashuvning eng arzon nuqtasida gullab-yashnaydi" O'zbekistonlik olimlarning fikrlari O'zbekistonda hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari akademik S.S. G'ulomov, iqtisodchi olimlar D. Qosimov, B. Berkinov kabi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. S.S. G'ulomov, akademik G'ulomov hududiy biznesni rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarning rolini yuqori baholaydi.

1-jadval

Hududlarda kichik biznesning iqtisodiy ulushi (2025-yil yanvar-sentabr)[5]

Hudud nomi	Kichik biznesning YAHM dagi ulushi (%)	Har 1000 aholiga to'g'ri keladigan subyektlar (birlik)	Yetakchi iqtisodiy tarmoq
Surxondaryo	76,5%	22,4	Qishloq xo'jaligi, Savdo
Namangan	72,8%	24,1	To'qimachilik, Hunarmandchilik
Buxoro	72,2%	37,5	Turizm, Xizmat ko'rsatish
Toshkent viloyati	52,1%	34,2	Sanoat, Logistika
Navoiy	22,4%	17,7	Tog'-kon sanoati (Yirik biznes)
Toshkent shahri	50,3%	43,4	IT, Moliya, Savdo

Hudud nomi	Kichik biznesning YAHM dagi ulushi (%)	Har 1000 aholiga to'g'ri keladigan subyektlar (birlik)	Yetakchi iqtisodiy tarmoq
O'zbekiston (O'rtacha)	51,5%	32,1	-

Ushbu jadvalda hududlar kesimida tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi (YAHM) hisssasi va aholi faolligi ko'rsatilgan.

2-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi (2025-yil holati 2024 yilga nisbatan) [6]

Iqtisodiy faoliyat turi	Subyektlar ulushi (%)	O'sish sur'ati
Savdo (Chakana va ulgurji)	38,0%	+11,0%
Sanoat (Ishlab chiqarish)	15,2%	+7,3%
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	9,1%	+5,4%
Qurilish	8,0%	+18,3%
Yashash va ovqatlanish (Turizm)	7,1%	+12,1%

3-jadval

Jahon tajribasi: Mintaqaviy o'sish prognozlari (2025–2026)[7]

Mintaqa	2025-yil o'sish prognozi (%)	2026-yil o'sish prognozi (%)	Rivojlanish drayveri
Janubiy Osiyo	6,6%	5,8%	Raqamli infratuzilma
Markaziy Osiyo	3,9%	4,2%	Logistika va Energetika
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	4,5%	4,3%	Yuqori texnologiyalar
Yevropa (Rivojlanayotgan)	2,4%	2,7%	Yashil iqtisodiyot

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, hududiy biznes rivojlanishi global iqtisodiy o'sishning asosiy drayveridir. Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi hamda xalqaro bozorlarda yuzaga kelayotgan

noaniqliklar sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes subyektlari YalMning 50-55 foizini shakllantirib, bandlikni

ta'minlashda asosiy rol o'ynamoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) tahlillarida aytilishicha, dunyo miqyosida yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda[8].

Bugungi kunda hududiy biznesning rivojlanishi faqat yer yoki xomashyoga bog'liq emas. Intellektual kapital va axborot texnologiyalarini mahalliy boshqaruvga joriy etish mintaqaning investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omildir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hududiy biznesni rivojlantirish — bu faqat iqtisodiy ko'rsatkich emas, balki ijtimoiy barqarorlik garovidir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat aralashuvi kamaygan, ammo qo'llab-quvvatlash tizimi (infratuzilma va qonun ustuvorligi orqali) kuchli bo'lgan hududlar eng tez rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida klaster tizimini takomillashtirish va "mahallabay" ishlash tizimini raqamlashtirish hududiy

biznesning yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi. Hududiy biznesni rivojlantirish tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 2017–2024-yillar oralig'ida tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan institutsional muhit sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar va olimlarning ilmiy qarashlari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Raqamlashtirish va Innovatsiya: Akademik S.S. G'ulomov ta'kidlaganidek, hududiy biznesning kelajagi faqat xomashyoga emas, balki IT va innovatsiyalarga bog'liq. IT xizmatlarining Toshkent shahrida yetakchi ekanligi buni isbotlaydi.

2. Tizimli muammolar: Sohadagi o'sishga qaramay, moliyaviy resurslarga kirish va infratuzilmaviy cheklolar hamon asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Buni hal etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamlashtirish-iqtisodiy-o-sish-va-raqobatbardoshligini-oshirish-omili-sifatida>.
2. G'ulomov S.S. "Raqamli iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar" Toshkent, 2021.
3. <https://store.hbr.org/product/the-competitive-advantage-of-nations/10019>
4. <https://mitpress.mit.edu/9780262111591/geography-and-trade/>
5. Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tayyorlangan
6. Muallif tomonidan statistic ma'lumotlar asosida tayyorlangan
7. Jahon banki hisoboti. "World Economic Outlook: Global Regional Growth", 2023–2024.
8. <https://lex.uz/docs/-6658633>

9. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
10. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
11. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.



Ushbu jurnal Toshkent shahar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining «Ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyatini amalga oshirish»ga №060125 raqamli guvohnomasi asosida ruxsat etilgan.

**Nashrga ruxsat berildi 18.03.2026 y.
Bichimi 84/60.1/8. Bosma tabog'i 5.
«ALFRAGANUS UNIVERSITY» nashriyotida tayyorlandi.
Muharrir: Xolbekov S.**